

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI

O‘ZBEK TILI VA UNI O‘QITISH USLUBIYATI KAFEDRASI



“Himoya qilishga ruxsat beraman”
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani
v.b. _____ f.f.n. Sh.Haydarov
“ _____ ” _____ 2013 yil

5141100 - o‘zbek tili va adabiyoti ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr darajasini olish uchun

ABDUVALIYEV SHAMSIDDIN ONORBOY O‘GLINING

**ONA TILI O‘QITISHDA MUAMMOLI TA‘LIM VA O‘QUVCHILAR
FAOLLIGINI OSHIRISH**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: p.f.n. Q.M.Yadgarov

Taqrizchi: f.f.n. Sh.Haydarov

BMI O‘zbek tili va uni o‘qitish uslubiyati
kafedrası yig‘ilishining qarori bilan (qaror №10, 15.05.2013)
himoyaga tavsiya etilgan.
Kafedra mudiri _____ p.f.n. Q.Yadgarov

Jizzax-2013

ONA TILI O‘QITISHDA MUAMMOLI TA’LIM VA O‘QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISH

REJA:

Kirish. BMI ning umumiy tavsifi

I bob. O‘qitishda muammoli ta’lim metodidan foydalanish.

1.1. Metod haqida tushuncha.

1.2. Matn yaratishda muammoli ta’im usulidan foydalanish.

1.3. Ona tili va unda matn yaratish muammosi talqini.

II bob. Ona tili mashg‘ulotlarida muammoli ta’lim usulidan foydalanish.

2.1. O‘quvchilarga bilim berishda izlanishga asoslangan metodlardan foydalanish.

2.2. O‘quvchilar faolligini oshirish omillari.

III bob. Ishning amaliyotga tadbiqu.

3.1. Umumiy o‘rta ta’limda o‘quvchilar faolligini oshirishga qaratilgan o‘yin-topshiriqlardan foydalanish.

3.2. Ona tili darslarida didaktik o‘yinlardan foydalanish

Xulosa

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Yunon faylasufi Suqrot o'quvchi tafakkuri rivojlanishini faqat uning mustaqil ravishda ishlashini ta'minlash bilan, shaxsning kamolati va qobiliyatini rivojlantirishni esa o'z-o'zini anglash bilan o'stirish mumkin ekanligini aytadi. O'quvchi shaxsiga bunday yondashuv ta'lim amaliyotiga tadbiq etilsa, o'quvchiga huzur va qoniqish bag'ishlashi, uning bilimlarni egallashdagi sustkashligini yo'qotishi tayin bo'ladi.

Mustaqil fikrlash borliqni, voqyelikni idrok etish usuli sifatida tafakkur bilan bog'liq bo'lib, mustaqil faoliyat jarayonida shakllanadi. Shu boisdan ham Prezidentimiz I.A.Karimov mazkur muommoning mohiyatiga alohida e'tibor qaratib shunday degan edi: "Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir.

O'quvchilarga o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan talablar ko'p hollarda mustaqil fikr yuritish ehtiyojini tug'dirmaydi. Ta'limda faqat bilimlarni tarkib toptirishga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligining past bo'lishiga olib keladi. Vaholanki, mustaqil fikrlaydigan o'quvchigina bilimlarni mustahkam o'zlashtiradi. Shu sababli mustaqil fikrlashga o'rgatish juda muhim jarayondir.

Ta'lim jarayonini o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlikka tayangan holda muammoli izlanish, mustaqil ishlash metodi va didaktik o'yinlar asosida tashkil etishi o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish bilan birgalikda ularning faolligini oshirish ham muhimdir.

Ma'lumki, dars ikkiyoqlama jarayon: unda o'qituvchi ham, o'quvchi ham faol ishtirok etadi. Shuning uchun o'qitish metodlarini tasnif qilishda faqatgina o'qituvchi faoliyati emas, o'quvchi faoliyati ham asos qilib olinishi kerak. Ona tili darslarida qo'llanadigan metodlar nafaqat bilimlarni bayon qilish yoki mustahkamlashga xizmat qilishi balki o'quvchilarning faolligini oshirishni ham hisobga olishi, o'quvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlash lozim.

Bilimlarni muammoli holda bayon etishda o'qituvchi til materiallarini tayyor holda bayon etmaydi, balki kuzatish, taqoslash, o'xshatish va farqli tomonlarini aniqlash, umumlashtirish kabi logik, o'quvchilar oldiga ma'lum bir muammo qo'yadi.

Bu muammolarni hal qilish va bu orqali o'quvchilar faoligini oshirish ustida baxs yuritishi ushbu ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

O'quvchilarning materialni puxta va oson o'zlashtirishi ko'p jihatdan metodning samaradorligiga bog'liq. Tanlanayotgan metod til materiali mazmuniga muvofiq kelsin. Mavzu o'quvchilarning real imkoniyatlariga muvofiq kelib, shu mavzu yuzasidan oldingi sinflarda ma'lum bir tushunchaga ega bo'lsalar, reproduktiv usul bilan muammoli ta'lim usullarini ishga solish samara beradi. Masalan, fonetik, leksika, morfologiya, sintaksisdan ayrim mavzularni o'tishda bu usullar yaxshi samara beradi. Mavzu hajim jihatdan katta va murakkab bo'lsa, tushuntirish usulini muammoli va ta'limning ayrim elementlari bilan qo'shib olib borish ma'qulligini izohlash ham ushbu ishimizning dolzarbligini ta'kidlaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilar tafakkurini o'stirish, o'quv-biluv jarayonini ijodiy tashkil etish, muammoli izlanish metodi, mustaqil ishlar, didaktik o'yinlarning o'quvchilar o'quv-biluv faoliyatiga va tafakkuriga ta'siri qator olimlar tadqiqotlari obyekt bo'lib kelgan. Masalan, adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish jarayoni Q.Husanboyevaning "Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari" (2006) mavzusidagi tadqiqotida o'z aksini topgan.

N.Sattorovanning "O'quvchilarning insho yozish malakasini rivojlantirish (5-sinf ona tili o'qitish jarayonida)" (1995), S.Matchonovning "Umumta'lim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish" (1998), L.Mirjalolovanning "O'zbek tili mashg'ulotlarida bolalarni savol-javobga o'rgatishning nazariy-metodik asoslari" (2002), Sh.Yusupovanning "Hozirgi o'zbek adabiy tilini

o'qitishda o'quvchilar tafakkurini o'stirishning ilmiy-metodik asoslari (akademik liseylar misolida)" (2005) mavzusidagi tadqiqotlarida adabiyot va ona tili darslarida mustaqil ishlardan foydalanish yo'llari o'rganilgan.

Bulardan tashqari mavzuga yaqin bo'lgan va avval bajarilgan BMIIlarini tahlil qilganimizda H.Tojiboyevaning "Iboralarni o'tish orqali o'quvchilarning nutqini o'stirish metodikasi" mavzusidagi BMII da muammoli ta'limga to'xtalib o'tgan M.Sherqulova "Ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashini o'stirish usullari" mavzusidagi BMII da o'quvchilar faolligini oshirishga to'xtalib o'tgan M.Nurmatova "Matn ustida ishlash orqali o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish metodikasi" nomli BMII larida asosan o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish yuzasidan iborat ishlar olib borilgan. Biz bu ishimizda yuqorida qayd etilgan ishlardan andoza olgan holda muammoli ta'lim orqali o'quvchilar faolligini oshirishga to'xtaldik.

BMIning maqsadi va vazifasi. Ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarni faolligini o'rgatish usullarini tadqiq qilish, umumlashtirish hamda tizimlashtirishdan iborat.

1. Milliy ma'naviy merosimiz hamda ilmiy-metodik asarlar tahlili, ona tili darslarida o'qituvchilarining ijodiy tajribalarini o'rganish asosida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy va amaliy asoslarini aniqlash.

2. Ona tili ta'limi jarayonida muammoli ta'lim, izlanishga asoslangan ta'lim tushunchalarini mazmunini yoritish va uning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish.

3. Ona tili darslarida o'quvchilarni muammoli ta'lim orqali faolligini oshirish jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish.

4. O'qitish usuli ona tili darslarining maqsad va vazifalariga muvofiq kelsin. Darsning har bir bosqichi ma'lum bir maqsadni ko'zlaydi va shu maqsad metodning ham o'zgarganligiga sabab bo'ladi. Yangi bilim berish darslarida muammoli ta'lim usulidan foydalanishni izohlab berish.

BMI obykti va predmeti. O'qituvchi til materiallarini tayyor holda bayon etmaydi, balki kuzatish, taqqoslash, o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash, umumlashtirish kabi logiklingvistik vositalardan foydalanib, o'quvchilar oldiga ma'lum bir muammo qo'yadi. O'quvchilar mavjud bilim va ko'nikmalar asosida muammoni yechadilar.

BMIning yangiligi:

1. Ona tili darslarida o'quvchilarni muammoli ta'lim usuliga o'rgatishning ilmiy va amaliy asoslarini aniqlash.
2. Ona tili ta'lim jarayonida o'quvchi va o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar tushunchasi mazmunining o'ziga xos xususiyatlari ochib berildi.
3. Muammoli izlanish, mustaqil ish usullari, didaktik o'yinlar, ona tili darslarida o'quvchilar faolligini oshirishga o'rgatishning ilmiy-metodik asosini tashkil qilishi isbotlandi.
4. O'qituvchi-o'quvchi hamkorligi o'quvchilarni faolligini oshirishga o'rgatish jarayoniga ta'sir etuvchi muhim omili sifatida tahlil etildi.

BMI ning tuzilishi va hajmi: Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, uning o'rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifasi, obykti va predmeti hamda uning yangiligi haqida ma'lumot berildi. Ishning asosi uch bobdan iborat bo'lib, unda o'qitishda muammoli ta'lim metod bilan foydalanish orqali matn ustida ishlashning metod va usullari ochib berildi. Ona tili mashg'ulotlarida muammoli ta'lim usulidan izlanishga asoslangan metodlardan foydalanib, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish orqali faolligini oshirish ustida baxs yuritildi. Shu bilan birgalikda ishning amaliyotga tadbig'i hamda bir soatlik dars ishlanmasi ham berildi. Ishga qisqa xulosa va adabiyotlar ro'yxatini kelitirish bilan yakun yasaymiz.

BMI ning hajmi 61 sahifani tashkil qilib, 29 ta adabiyotlar ro'yxatidan foydalanildi.

I BOB. O‘QITISHDA MUAMMOLI TA’LIM METODIDAN FOYDALANISH

1.1. Metod haqida tushuncha. Metod – ayni. “biror narsaga borish yo‘li” demakdir. Umumiy ma’noda maqsadga erishish usuli, muayyan tartibga solingan faoliyat demakdir. Didaktik ma’noda hamma fanlar uchun umumiy bo‘lgan o‘qitish usullari hamda vositalarini o‘z ichiga oladi. Ayrim fanlarni o‘qitish bilan aloqador masalalarni xususiy metodika o‘rganadi. Ona tili o‘qitish metodikasining umumiy yo‘lini didaktika belgilab beradi.

Ona tili o‘qituvchisi o‘quvchilarga bilim berishda o‘z mehnatining samarali va yengil bo‘lishi uchun turli xil ish usullarini qo‘llaydi, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini amalda qo‘llay olishlari uchun ularga mos keladigan mashqlar tanlaydi. Mana shular butun holicha o‘qitish metodlari sanaladi. Ona tili o‘qituvchisi mutaxassis sifatida lingvistikani mukammal bilishi kerak.

Ma’lumki, dars jarayonida ko‘plab metodlardan foydalaniladi. Ana shu metodlarni tanlashda quyidagi faktorlarga asoslanadi:

A) o‘quvchi bilimni qaysi manbadan (o‘qituvchidan, jonli tildan yoki kitobdan) oladilar;

B) o‘quvchilarni mashg‘ulotlarga jalb qilish jarayoni (moyillik, qiziqish va boshqarish);

V) o‘quvchilarning mustaqil ishlash shakllari (yozma va og‘zaki) va o‘rni (sinfda yoki uyda).

Metod tanlashda nazariy ma’lumot va unga mos keladigan mashqlar, sinfning tayyorgarligi, o‘quvchilarning yoshi va temaning hajmi hisobga olinadi. Shuning uchun ham mashqlar gramatik tahlil, ko‘rgazmali qurollar, suhbat kabi metodlar deyarlik har bir darsda qo‘llanishi mumkn.

Metod tanlashda ona tili kursining o‘ziga xos xususiyatlariga ahamiyat beriladi: nutq o‘stirish darslarida notanish so‘zlarning ma’nosini izohlash, inshoga tayyorlanish, o‘quvchilarni lug‘at yoki adabiyotlar bilan ishlashga

o'rgatish stilistik xatolarni tuzatish kabilardan foydalanilsa, grammatika darslarida suhbat, bayon, ta'rif va qoidalar ustida ishlash kabi usullardan foydalaniladi.

2. O'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar. Metodika tarixidan shu narsa ma'lumki, hamma fanlar uchun umumiy bo'lgan metodlar va alohida fanlar uchun xarakterli metodlar mavjud. Ona tili o'qitish metodikasi tarixida ham xilma-xil metodlar qo'llanilgan bo'lib, ularning eng maqsadga muvofiqlari o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga olgan metoddir. Shundan kelib chiqib amalda qo'llanayotgan metodlarni ikkiga ajratamiz:

1. O'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar.
2. O'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar.

O'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodikani uchga ajratamiz.

1. Bilimlarni tayyor holda bayon qilish usuli.
2. Bilimlarni suhbat vositasida bayon qilish usuli.
3. bilimlarni muammoli bayon qilish usuli.

A) Bilimlarni tayyor holda bayon qilish usuli.

Bu metod ona tili darslarda juda ko'p qo'llanadi. Bayon yordamida murakkabroq, o'quvchilarga oldindan noma'lum mavzular izohlanadi. Gramatik ta'rifning mohiyatini tushuntirishda, qo'shimcha ma'lumot berishda, savollarga javob berishda bu usuldan foydalanamiz. Bu usulning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Ijobiy tomonlaridan biri vaqtni tejaydi. Salbiy tomoni o'quvchining fikrlash faoliyati ma'lum darajada chegaralanadi. Ko'pincha o'quvchi passiv tinglovchiga aylanib qolishi mumkin. Bunday negativ holatlarning oldini olish uchun o'qituvchi quyidagilarga amal qilgani ma'qul.

1. O'qituvchi nutq madaniyatiga e'tiborni kuchaytirish. O'qituvchining nutqi mantiqiy talablarga javob berishi kerak. Sodda, mazmunli, ifodali, izchil nutq o'quvchilarning bilimga nisbatan qiziqishini orttiradi.

2. Bilimlarni tayyor holda berish ishontirish va asoslash usullarini keng qo'llashni taqozo qiladi. Ishontirish va asoslash o'rganilayotgan materialga katta qiziqish uyg'otadi. U o'quvchi xotirasida uzoq vaqt saqlanadi.

3. O'quv materialni qat'iy bir reja asosida bayon qilish ham uni tinglash va o'zlashtirish imkoniyatini kengaytiradi.

Bilimlarni tayyor holda bayon qilishda o'quvchilar diqqatini materialning asosiy tomoniga jalb qilish: o'rganilgan, o'rganilayotgan va o'rganiladigan til materiallari orasidagi aloqani yuzaga keltirish o'quvchilarning faoliyatini aktivlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

B) Bilimlarni suhbat yo'li bilan bayon qilish usuli.

Suhbat ona tili darslarida keng tarqalgan usul bo'lib, u o'quvchilar aktivligini oshirishda katta imkoniyatlarga ega. Bu usuldan darsning hamma bosqichlarida: yangi bilim berishda, bilimlarni takrorlash va mustahkamlashda, bilimlarni tekshirish va baholashda foydalansa bo'ladi.

O'rganiladigan material o'quvchilarga oldingi sinfdan qisman ma'lum bo'lsa yoki o'quv materiali oldingi tema bilan bevosita bog'lansa darsda suhbat metodini qo'llash mumkin.

Suhbatda o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida berilgan faktlarni kuzatadilar, o'zaro qiyoslaydilar va muhokama qiladilar, so'ngra umumlashgan xulosa chiqaradilar. Bu usul o'quvchilar nutqini o'stirishda muhim omillardan biridir.

Suhbat usuli puxta o'ylab tuzilgan savol va topshiriqlar asosida o'tkaziladi. Darslikda berilgan savol va topshiriqlar ham bu usulni muvaffaqiyatli qo'llashga yordam beradi.

Suhbat uch xil bo'ladi:

A) axborot xarakteridagi suhbat, b) evristik suhbat, v) o'tilgan temani mustahkamlash xarakteridagi suhbat.

Axborot xarakteridagi suhbat. Yangi material o'tilayotganda o'quvchilarga oldindan ma'lum bo'lgan faktlarni nazarda tutib, ular suhbatga jalb qilinadi. O'quvchilar o'tilayotgan qoidaga mos misollar topadilar, noma'lum o'rinlarni so'rab oladilar. Bunday suhbat qiyosiy usulda o'rganilayotgan mavzularda qo'l keladi. Masalan, sifat o'tilayotganda o'quvchidan sifatdoshning grammatik belgisini so'rash mumkin: yaxshi bola –

o'qigan bola misollari orqali sifat va sifatdoshning umumiy belgilari aniqlanib ularni farqlash maqsadida o'rtaga savol tashlaydi. Yoki Qaysi so'z turkumi zamon anglatadi? O'quvchilar fe'l haqidagi bilimlariga asoslanib savolga javob qaytardilar. O'quvchining diktant, bayon va insholarda yo'l qo'ygan orfagrafik punktuatsion va stilistik xatolarini tahlil qilishda ham bu usuldan foydalansa bo'ladi.

Evristik (grammatik heurisko – topmoq. O'rtaga qo'yilgan masalani o'quvchining o'zlari muhokama yo'li bilan yechishlari nazarda tutiladi) suhbatda o'quvchining mustaqil fikrlash imkoniyatlari ancha kengayadi. Oldindan tayyorlangan savollar o'quvchini fikrlashga majbur qiladi. Bunda o'qituvchi o'quvchiga oldindan ma'lum bo'lmagan yangi o'quv materiali yuzasidan savollar beradi. O'quvchilar mavjud bilimlari asosida javob izlaydilar. Bunday suhbat so'z yasaliş usullari, ot yasovchi qo'shimchalar, fe'l nisbatlari, so'z birikmasi, ajratilgan bo'laklar kabi mavzular bo'yicha o'tkazilishi mumkin. Demak, evristik suhbatda muammoli ta'lim elementlari mavjud bo'ladi. Masalan: Nutq tovushlari va ularning hosil bo'lishi temasi o'tiladiganda quyidagi savollar bilan murojaat qilishi mumkin: 1. Siz nutq tovushlari deganda nimani tushunasiz? 2. nutq tovushlari qanday hosil bo'ladi? 3. rasmga qarab tovushlarning tashqariga chiqish yo'lini aniqlang? 4. Nutq tovushlarini hosil qilishda qanday nutq organlari aktiv ishtirok etadi. Bu savollarning javobida o'qituvchi ham ishtirok etadi.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash xarakteridagi suhbat.

Suhbatning bu turidan o'tganlarni takrorlash, 5-6 kun oldin o'tilgan qoidalarni o'quvchilarga eslatish maqsadida foydalaniladi. Bunda maxsus savollar orqali o'quvchilarga murojat qilinadi. Savollar aniq, qisqa, qo'shaloq bo'lmagan holda atroflicha o'ylab tuzilmog'i kerak. Unga o'quvchi mantiqiy va izchil javob bermog'i lozim. Ba'zi savollar alterna bo'lishi mumkin: Bulbul sayraydi gulda gapining sintaksis tahlillarda gulda so'ziga o'quvchi ikkilansa, o'qituvchi to'ldiruvchimi? Holmi? deb qo'shimcha savol berishi mumkin. Suhbatga barcha o'quvchilar jalb qilinmog'i kerak.

Suhbat, ayniqsa, yangi temani boshlash oldidan oldingi temani o'quvchilardan so'rashda didaktik vosita hisoblanadi. O'tilgan temaga to'liq javob olinmasa, hatto, yangi tema o'tilmasligi mumkin. Suhbat uchun vaqt mavzuning hajmiga o'quvchilarning tayyorgarligi va qiziqishiga qarab ajratadi. V-VII sinflarda 15-20 m., VIII-IX sinflarda 20-25 m., qaytarish darslarida 30 minutgacha.

V) bilimlarni muammoli bayon qilish. Bu usulda o'qituvchi til materiallarini tayyor holda bayon etmaydi, balki kuzatish, taqqoslash, o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash, umumlashtirish kabi logik – lingvistik vositalardan foydalanib, o'quvchilar oldiga ma'lum bir muammo qo'yadi. "Noqobil o'qituvchi haqiqatni shunchaki aytadi – qo'yadi, yaxshisi esa uni topishga o'rgatadi" (V.O.Disterng). O'quvchilar mavjud bilim va ko'nikmalar asosida muammoni yechadilar.

Ona tili darslarida shunday muammoli vaziyat hosil qilish mumkin. "nutq tovushlari va ularning hosil bo'lishi" mavzusida beriladigan topshiriqlar:

1. Har biringiz nutq tovushlarini hosil qilib ko'ring. Ularni hosil qilishda qaysi nutq organlari ishtirok etadi?

2. Nutq tovushlarini aytishda qaysi nutq organlaringiz aktiv ishtirok etadi?

Unli va undosh tovushlarini o'tishda. 1. Unli va undosh tovushlarni alohida aytib ko'rlaring. Ularning talaffuzida qanday farq sezilyapti?

2. 6 ta unli ishtirokida bir bo'g'inlar so'zlar yozing. Ulardagi unlilarni almashtirib ko'ring. Qanday o'zgarish sezyapsiz?

3. O'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar ham 3 ga ajratiladi.

1. Reproduktiv metodlar.

2. Qisman izlanuvchanlik metodlari.

3. Izlanuvchanlikka asoslangan metodlar.

A) Reproduktiv metodlar. Bu usulda o'quvchilar tayyor material bilan ishlaydi. Topshiriqlarni bajarishda o'quvchi namunaga qarab ish ko'radi. Til

materiallarini qayta xotirlash, tayyor soʻz, soʻz birikmasi, gap va matnlar bilan ishlash oʻquvchilardan reproduktiv faoliyatni talab qiladi.

Ona tili darslarida bajariladigan ish formalari, jumladan, koʻchirib yozish, izohli yozuv, saylanma diktant, fonetik, orfografik, leksik morfologik, sintaktik tahlillar, ularning sxemasini chizish, matnga tinish belgilarini qoʻyish, sheʼrni nasriy yoʻl bilan bayon qilish; namunaga qarab soʻz, soʻz birikmasi, gap va matnlar tuzish, shevada berilgan soʻzlarni adabiy til normalari asosida yozish kabi topshiriqlardan reproduktiv xarakteridagi topshiriqlardir. Oʻquvchilarning orfografik va punktuatsion savodxonligini oshirish, ularning yozma va ogʻzaki nutqini oʻstirishda reproduktiv topshiriqlarning roli juda katta. Chunki oʻquvchi imlosi murakkab soʻzlarni bir marta koʻrish, eshitish yoki yozish bilan oʻzlashtira olmaydilar, ular uzluksiz takrorlash asosida oʻrganiladi.

B) Qisman izlanuvchanlik metodlari. Bu usul oʻquvchining interpretasion (sharhlash, talqin qilish, izohlash, tushuntirib berish) faolligini oshirishga qaratilgan. Qisman izlanuvchanlik metodi tarkibida qayta xotirlash asosiy oʻrinni egallaydi. Chunki ona tilidan egallangan bilimlarga asoslanmay turib bir til vositasini boshqasi bilan almashtira olmaydi. Bu albatta, ijodiy faoliyat bilan bogʻliq.

Bu metodda quyidagi ish usullari qoʻllanadi:

- A) nuqtalar oʻrniga zaruriy harflar, qoʻshimchalar, soʻzlar qoʻyish;
- B) maʼlum bir soʻzni boshqasi bilan almashtirish;
- V) gapga maʼlum oʻzgartishlar kiritish orqali maʼno oʻzgarishini tushuntirish;
- G) maʼlum uslubga muvofiq matn tanlash;
- D) tayanch soʻzlar yordamida matn tuzish kabilar.

V). Izlanishga asoslangan metodlar. Bu usul izlash, yangilik topish uchun harakat qilish, yangilik izlash, qidirish, ajratish degan maʼnolarni anglatadi. Oʻquvchi dars jarayonida ona tili fanidan maʼlum bir yangilik izlamaydi yoʻl bilan oʻrganadi, xolos. Bu usul oʻquvchidan oʻrganilgan qonun-qoidalarni

tamoman yangi vaziyatda qo'llashni talab qiladi. O'quvchining ma'lum grammatik qoida talabiga muvofiq so'z, so'z birikmasi, gap va matn tanlashi; erkin diktant, insho; o'qilgan badiiy asarga taqriz yozish; badiiy asar tilini mustaqil o'rganish; gazeta va jurnallarga maqola yozish, referat tayyorlash kabi ish usullarida tadqiqotchilik faoliyati namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, izlashga asoslangan usullardan foydalanish, birinchidan, o'quvchilarning til materiallariga qiziqishini oshiradi, ikkinchidan, til materiallarini mustaqil tahlil qilishga o'rgatish orqali mustaqillikni shakllantiradi, uchinchidan, ona tili o'qitishning amaliy yo'nalishini kuchaytiradi.

1.2. Matn yaratishda muammoli ta'lim usulidan foydalanish.

Respublikamizdagi umumiy o'rta ta'lim maktablari ona tili ta'limi tizimida, mustaqil fikrlash, fikr mahsulini og'zaki va yozma ravishda to'g'ri, ravon ifodalash, o'quvchilarda kommunikativ savodxonlikni ta'minlash vazifalarining Davlat ta'lim standartlari asosida tashkil etilishi o'zbek tili o'qitish metodikasi oldiga dolzarb vazifalarni qo'ydi. Ular quyidagilar:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari ona tili mazmunini takomillashtirish, darsliklardagi o'quv mashqlarini o'quvchida ijobiy o'quv motivlarini hosil qiluvchi lingvopsixologik topshiriqlar darajasiga ko'tarish.

2. Lingvopsixologik o'quv topshiriqlari, muammoli vositalarni tanlash va bajarish jarayonida o'quvchining o'z hoxish – intilishlari, qiziqishlari, mustaqilliklari ustuvorligini ta'minlash.

3. O'quvchi shaxsini o'zi va o'rtoqlari nutqiy faoliyatini muntazam ravishda tanqidiy nazorat qilishga odatlantirish, uning o'z nutqiy – intellektual qobiliyatini namoyish qilishga qaratilgan subyektiv-instinktiv haraktini qo'llab-quvvatlash.

4. O'quvchiga og'zaki va yozma nutq jarayonida so'z va iboralarni to'g'ri tanlash, uni nutqiy vaziyat taqazosiga ko'ra, o'rinli ishlatish ko'nikmalarini singdirish v.h.

Til shunday mo'tabar "ne'matki", u insoniyatga tafakkur gulshanlari darvozasini katta ochib bergan tengi yo'q robitai olamiyondir¹.

XI asr sharqining buyuk allomasi Kaykovus o'zining "Qobusnoma" asarida shunday bir hikoyatni aytadi: Bir kecha halifa Xorun ar-Rashid tush ko'radi. Tushida uning barcha tishlari to'kilib ketgan emish. Xalifa muabbirdan tushining ta'birini so'raydi. Muabbir shunday deydi: Ey amiralmo'minin, sening oldingda barcha yaqinlaring, qarindosh-urug'laring o'ladi. Sendan boshqa hech kim qolmaydi. Buni eshitgan Xorun ar-Rashid: "Mening yuzimga shunday qayg'uli gaplarni aytding", -deb uni yuz tayoq urishni buyuradi. Keyin boshqa

¹ Нематов Х. Бозоров О., Тил ва нутқ, Т., "Ўқитувчи" 1999, 3,3-бет.

muabbirni chaqirib, undan tushining ma'nosini so'raydi. Muabbir bunday deydi: "Ey amiralmo'minin, sening umring barcha qarindoshlaring umridan uzoq bo'ladi." Shunda xalifa Xorun ar-Rashid: "Barcha aqlning yo'li birdir va har ikki ta'birning negizi bir joyga borib taqaladi, ammo u ibora bilan bu iboraning orasidagi farq bag'oyat ko'pdir" deydi va uni o'z ulamolariga namuna qilib ko'rsatadi.

Bu ibratli hikoyatda o'zaro muloqot chog'ida tilning qanday ahamiyat kasb etishi, u inson qalbiga yo'l topishi sir – sinoatlarini ochib berguvchi sehrli kalit ekanligini bilib olamiz. Til – dil kaliti, degan maqol shundan qolgan bo'lsa ajab emas. Rus olimi A.A.Potebnya fikrlash jarayonida so'zning o'rnini juda to'g'ri izohlab bergan edi: "Inson so'z vositasida fikrlaydi, fikr esa so'z vositasida tartiblanadi, voqelanadi, zohir bo'ladi".

Monografiyada so'z yuritilayotgan mustaqil matn yaratish hodisasi ham inson tafakkuri mahsuli, uning o'zgaralar ongiga ta'sir etish vositalaridan biridir. Agar o'quvchining so'z boyligi nochor, lug'at xazinasida qashshoq bo'lsa, nasriy matn tuzish, mustaqil matn yaratish haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Bizning asosiy maqsadimiz o'quvchini nutqiy madaniyatga, muxtasar matn yaratishga o'rgatish ekan, qarshimizdagi eng dolzarb vazifa til satixlarini o'zaro bog'lab o'rganish, ona tili mashg'ulotlarida fanlararo aloqani mustahkamlash, uyadosh so'zlar ustida ishlash orqali o'quvchi so'z boyligini oshirish, maqol, matal, hikmatli so'z, ibora va tasviriy vositalar yordamida nutqiy zaxiralarni boyitishdan iborat. O'quvchiga matn va uning grammatik xususiyatlari, tarkibiy qismlari (kirish, asosiy qism va xulosa), gap, obzaz va MSB (murakkab sintaktik butunlik)larni o'zaro bog'lovchi, uslubiy ravonlikni ta'minlovchi tinish belgilari, grammatik bog'lamalar (olmoshlar, kirish so'z va gaplar, modal so'zlar) haqida to'liq ma'lumot berish, ularni o'quv amaliyotiga jadal tadbiiq etish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Zero, "... lug'at zaxirasi bisyor odamning tili biyron, nutqi ravon bo'ladi.." ¹.

¹ Зиёдова Т., "Ўқувчи китоби", А.Қодирий номидаги халқ мероси наіриёти, Тошкент, 2002. 130-бет.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili ta'limining asosiy maqsadi o'quvchilarning kommunikativ savodxonlik darajasini oshirish, ularni mustaqil va ijobiy fikrlashga yo'naltirish, fikr mahsulini to'g'ri, ravon, o'rinli ifodalashga o'rgatish ekan, uni amalga oshirishning ishonchli omillaridan biri – matn yaratishning samarali texnologiyasini ishlab chiqish, uni o'quv amaliyotiga izchil joriy etish, o'quvchini muammoli o'quv topshiriqlari orqali izlanish va kashf qilishga yo'naltirish, o'quvchi lug'at boyligini kengaytirish jarayonida nutqiy faoliyatini shakllantirish, (so'zning lug'aviy ma'nolarini sharhlash) fikr ifodalash (og'zaki nutq va matn yaratish)da so'zni tanib va tanlab ishlatishni talab qiluvchi o'quv topshiriqlari, nutqiy madaniyatni yuksaltiruvchi ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdir.

Bu muammolar orasida o'quvchilarda mustaqil matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishning intensiv – universal texnologiyasini yaratish, ana shu maqsadga xizmat qiladigan, matn yaratishning jadallashtirilgan, bosqichli tizimini ishlab chiqish va uni maktab amaliyotiga joriy etish masalasi alohida o'rin tutadi. O'quvchi so'z boyligini oshirishning, uning nutqiy zaxirasini boyitishning eng samarali usuli sathlararo hamda fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish (undosh so'zlar ustida ishlash, berilgan so'zning leksik – semantik qurshovi: qaysi so'zlar bilan ishlatilishi, xususiy belgilari miqdorini aniqlash, qaysi so'z turkumlari bilan ifodalanishi, ularning nomlari soni, sifati, holati, harakatini belgilash v.h.) dan iborat. Demak, o'quvchi nutqiy ko'nikmalarini takomillashtirishning asosiy omillari tafakkur mahsulini izchil, to'g'ri, ravon ifodalash, nutqiy vaziyat talabiga ko'ra mustaqil matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Umuman olganda, DTS talablarini to'la bajarish – o'quvchi kommunikativ savodxonligini ta'minlash masalasi, ona tili ta'limida mustaqil matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish va uni muntazam ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi. Buning uchun egallangan bilim, ko'nikma va malakalarning jadal amaliy tatbiqi, ya'ni mustaqil matn yaratish masalasi ona tili darslarida o'rganilayotgan har bir mavzuning asosiy maqsadiga aylanishi lozim. Matn yaratishning mantiqiy

davomi matn ustida ishlash bilan esa matnning tili, mantiqiy va uslubiy shakllanganlik darajasi o'rganiladi, o'quvchining kommunikativ savodxonlik darajasi esa, matn yaratish mahoratini aniqlash jarayonida o'z yechimini topadi.

Ona tilining yangi – yangi ifoda imkoniyatlarini izlab topish va uni dars jarayoniga tadbiiq etish o'quvchilarning ijodiy tafakkur, hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez, tanlash, guruhlash, yaratish kabi bilish qobiliyatlarini takomillashtirib, ularda milliy mafkura, mustahkam e'tiqod, milliy dunyoqarashini tarkib toptirishga xizmat qiladi. Turli til xodisalari (so'z va iboralarni) ma'nosini to'liq anglash va uni xususiy nutqda qo'llashga intilish – ulardan nutqiy vaziyatga mosini tanlash o'z fikrini ixcham, aniq va ravon ifodalash malakalarining shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratadi.

O'quvchi ta'lim o'qituvchi tizimida tomonlarning o'zaro hamkorlik, subyekt munosabatlari faollashadi, DTS talablariga ko'ra o'quvchi ham ta'lim jarayonining faol subyekt sifatida o'zi mustaqil faoliyat yuritishi: izlanishi, kuzatishi, bajarilgan ishni tahlil qilish, xulosalashi, baho berishi lozim bo'ladi.

Shunday qilib, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi doimiy ishonch o'zaro hamkorlik faoliyatigina o'quvchilarda mavjud bo'lgan mustaqil va ijodiy tafakkurni qo'zg'atishi, matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishi hamda rivojlantirishi mumkin.

O'qituvchi o'z o'quvchilarining dars jarayonidagi ilmiy-amaliy faoliyatini samarali tashkil qilish – avvaldan rejalashtirilgan, aniq bir maqsadga – mustaqil matn yaratishga yo'naltira bilishi uchun har bir dars rejasi va dars mavzusi bayonini puxta o'rganib chiqishi, darslikdagi amaliy mashqlar yetarli bo'lsa, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida darsni tashkil qilish, kamroq bo'lsa, yangi, qiziqarli mashq namunalarini tanlab, qo'shimcha mashg'ulot sifatida mavzuviy rejaga kiritishi, darsni o'zaro musobaqa ruhida olib borishi nihoyatda foydali. O'qituvchi doimiy ravishda o'z o'quvchilarini o'quv amaliyoti jarayonida o'rganganlari yuzasidan o'z xulosalarini aytib berishga undashi, ular tomonidan kiritilgan izlanuvchanlik ruhidagi ijodiy taklif va mulohazalarni, o'z "men"i, iqtidori, iste'dodini namoyish qilishga bo'lgan

urunishlarini ijobiy tushunishi, bunday ijobiy-kashfiyotchilik harakatlarini rag‘batlantirib borishi, ularga zaruriy shart – sharoit va imkoniyatlar yaratib berishi (monologik bellashuvlar quvnoqlar va zukkolar klubi bellashuvi), turli shakl va mazmundagi nutqiy mahoratni shakllantiruvchi (ko‘rik-tanlovlar, debatlar), lozim bo‘lsa, o‘quvchi shaxsini ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashi zarur bo‘ladi. O‘qituvchi shu tariqa nafaqat o‘quvchi bilimni, balki o‘zidagi pedagogik mahoratni ham takomillashtira boradi: o‘quvchi shaxsi, uning nutqiy darajasi haqida hukm va xulosa chiqarishga shoshilmaslik, o‘z vazifasiga mas’uliyat hissi bilan yondashish, o‘zida intellektual salohiyatni o‘quvchi bilan baham ko‘rish, o‘zida bag‘rikenglik, komil ustozlik fazilatlarini tarbiyalashga o‘rganadi. Ona tili o‘qituvchisining o‘quvchi shaxsiga ana shunday ijobiy va ijodiy yondashuvigina, o‘quvchilarda ilmga chanqoqlik, izlanuvchanlik, yangilik yaratishga intilish xislatlarini tarbiyalaydi, erkin va mustaqil fikrlashga, o‘quvchi uchun juda muhim va zarur hisoblangan til hodisalarini tushunish, undan amaliy foydalanish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalar hosil qilishga yordam beradi.

“Ona tili ta’limi mazmuni” o‘quv-metodik qo‘llanmasi mualliflari H.Ne’matov, A.G‘ulomovlar o‘quvchilarni ijodiy yozma ish – matn ustida ishlashga o‘rgatishda egallangan bilimlarni quyidagi ko‘nikma va malakalar bilan mustahkamlashni tavsiya qiladilar¹.

-“Ijodiy yozma ish” (matn) tushunchasi: rasm asosida hikoya, manzara tasviri, shaxs, hayvon, narsa – buyum, voqea – hodisa tasviri;

-o‘quvchi (muallif) va borliq; yozma ishning maqsadi; yozma ish – o‘quvchining (muallifning) o‘zligi;

- yozma ishga mavzu tanlash; uni tayyorlash; ayni bir narsa (buyum, manzara, voqea - hodisa) hamda turli mavzuda matn yaratish;

-yozma ish mazmunining mavzuga uning nomlanishi bilan uyg‘unligini ta’minlash;

-berilgan mavzu, erkin mavzu ustida ishlash;

¹ Гуломов А., Неъматов Х. Она тили таълим мазмуни, Т., “Ўқитувчи”, 1995.

-mavzuni yoritish uchun zarur material: o'quvchining bilimlari, kuzatishlari, taassurotlari, mushohadalari, qiyos va o'xshatishlari, hukm va xulosalari;

-yozma ishning rejasi, unga qo'yilgan asosiy talablari;

-tor reja, keng reja;

-manzilgohni yozish;

-mavzuni yoritishda mazmun izchilligi; "xat boshi" tushunchasi; yozma ish matni ustida qayta ishlash; uyadosh, ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli so'zlardan foydalanish;

-matnning uslubi (gap qurilishi), imlosi va tinish belgilari ustida ishlash;

-ishni oqqa ko'chirish;

-xatolar ustida ishlash v.h.

1.3. Ona tili va unda matn yaratish muammosi talqini.

Ta'lim mazmuni masalasi pedagogika tarixida eng qadimiy va, ayni paytda, eng dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Chunki insoniyat tarixiy taraqqiyotining barcha davrlarida "Nimani o'qitish kerak" degan savolga javob izlash bilan shug'ullanadilar va hali-hamon bu savolga to'liq, har tomonlama mukammal javobni topa olganlaricha yo'q. Didaktikaning so'ngi yutuqlarini o'zida jam qilgan, ta'lim mazmuni bo'yicha berilgan va berilayotgani eng yangi ma'lumotlar ham bundan mukammallikka davo qila olmaydi. Biroq muammoni ijobiy hal qilishga intilish, mustaqil, erkin fikrlovchi ma'naviy barkamol insonning tarbiyalashning eng ilg'or, zamonaviy metodlari, usul va vositalarini topishga bo'lgan harakat hech qachon to'xtagani yo'q va u inson zoti mavjud ekan to'xtamaydi. Chunki, odamlar yashaydigan jamiyat doimiy rivojlanishda, takomillashishda davom etadi va ijtimoiy taraqqiyot qonunlari asosida beto'xtov ilgarilab boraveradi.

Barcha rivojlangan davlatlarda ta'lim mazmuni davlat va jamiyat taraqqiyoti va talablariga ko'ra, pedagogik texnologiyalarning so'ngi yutuqlari asosida belgilanadi, shakllanadi. Ta'lim mazmunini shakllantirish 5 ta muhim tarkibiy qismlar (4-jadval) hisobiga amalga oshiriladi:

I. O'quvchilar egallashi zarur bo'lgan ilmiy – nazariy bilimlar tizimi (til faktlari, tushunchalar, qoidalar, ta'riflar).

II. Tanlangan ilmiy – nazariy bilimlarga muvofiq keladigan amaliy ko'nikma va malakalar tizimi (ko'nikma – egallangan tajribalar asosida muayyan faoliyatni amalga oshirish qobiliyati, malaka esa, muayyan harakatlarni bajarish va boshqarish jarayonlarining avtomatlashuvidir).

III. O'quvchilarni ijodiy faoliyat usullariga o'rgatish. Faoliyat qayta xotirlash, qisman ijodiy va to'liq ijodiy darajada bo'lishi mumkin.

Qayta xotirlash faoliyati – o'qituvchi tomonidan ko'rsatilgan yoki darslikda berilgan namunaga qarab mashq bajarish faoliyatidir. Bu esa o'rganuvchining faollik darajasini chegaralaydi. U izlanishga, kashf qilishga ehtiyoj sezmaydi.

Qisman izlanuvchanlik faoliyatida o'quvchi yo'naltiruvchi topshiriqlar yordamida til xodisalarining o'xshash va farqli tomonlari ustida o'ylashi, uni topishi, avvalgi bilimlarni qisman noma'lum sharoitlarda qo'llashi mumkin.

Ilmiy – ijodiy faoliyatda o'quvchi hech qanday tashqi yordamsiz, olgan bilimlarini butunlay yangi sharoitda, masalan, kompyuterda qo'llay olishi, faoliyat uchun zarur bo'lgan, lekin o'zida bo'lmagan bilimlar manbasini topa bilishi, ulardan nutqiy vaziyat taqqozosiga ko'ra, o'rinli foydalanish ko'nikmalarini egallashi talab qilinadi. O'quvchini ijodiy faoliyatga qiziqtirish, uning matn yaratishga bo'lgan har qanday urinishini qo'llab – quvvatlash tajribasiga qanchalik ko'p asoslansak, ta'limning samaradorlik darajasi shunchalik yuqori bo'ladi.

IV. O'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi. Bu munosabatlar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi maqsadga intilishdagi sheriklik, o'zaro tenglik, hamkorlik, muhokama, qiyosiy tahlil, to'g'ri hukm va xulosaga asoslanmog'i lozim. Ta'lim mazmunining bu tarkibiy qismlari chiziqsimon birin-ketinlikda joylashgan xodisalar emas, balki aylanasimon yaxlitlik bo'lib, bu aylananing boshlanish va tugallanish nuqtasi birinchi va beshinchi qismlari, aylana doirasi esa ijodiy-amaliy ko'nikmalar zahirasini tashkil etadi.

V. O'quvchida mustaqil fikrlash, fikr ifodalash va matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirish tizimi.

Nutqiy – amaliy ko'nikmalar zanjirining eng muhim, yakunlovchi halqasi o'quvchida mustaqil fikrlash, fikr ifodalash va matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirish tizimi ustida ishlash – o'quvchi nutqiy iqtidori, matn yaratish ko'nikmasining malakaga aylanishi, tafakkur mahsulining moddiylashuvidir.

Boshqacharoq aytganimizda tafakkur, nutq, matn yaratish xodisalarini o'zaro uyg'unlik va uzluksizlikda, til bo'limlari va boshqa fanlar bilan mustahkam aloqadorlikda, yozma fikr ifodasini yengillashtiruvchi muayyan bir tizimda o'rganish kommunikativ savodxonlikning eng so'nggi natijasi – ijodiy matn yaratish va uni mustaqil tahlil qilish ko'nikmalarining shakllanishiga olib keladi.

O'quvchilar umumiy o'rta ta'lim maktablarida DTS talablari bo'yicha belgilangan ona tili o'qitish mazmuni va undagi matn ustida ishlash va matn yaratish mavzusi yuzasidan quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari lozim:

Grammatikaga oid bilimlarni egallash – fonetika, leksikologiya, so'z tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya va sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari nutq uslublari, uslubiyatga oid tushunchalarni o'rganish, ular amaliyotiga oid BKMLarni egallash;

-birinchi yo'nalish: - O'quvchilarning lug'at zaxirasini kengaytirish va boyitish, so'zning lug'aviy ma'nolari ustida ishlash (uyadosh so'zlar, ma'nodoshlar, zid ma'noli, shakldosh, tarixiy, olinma so'zlar v.h.), o'quvchi uchun notanish bo'lgan so'zlar ma'nosi va qo'llanish doirasini aniqlash;

-ikkinchi yo'nalish; - o'zbek adabiy tili me'yorlari, to'g'ri talaffuz, to'g'ri yozish, so'z tanlash, so'z birikmalari hosil qilish, gap tuzish me'yorlari, til birliklarining uslubiy imkoniyatlari xususan, uyadoshligi (bir mavzu, guruh va uyaga mansub so'zlar, fanlararo va sathlararo aloqa) va ma'nodoshligi (sinonimiyasi); mustaqil va ijodiy fikrlash, fikrni to'g'ri aniq ravon ifodalash, grammatik sinonimiya (frazologik sinonimiya, lug'aviy sinonimiya, qo'shimchalar sinonimiyasi, gap va matn sinonimiyasi) namunalari ustida ishlash, ifodali o'qitish (qiroat san'ati) bilan shug'ullanish;

-uchinchi yo'nalish: - O'quvchilarda fikr mahsulini og'zaki va yozma ravishda izchil, to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini egallash, matn tahlili, matn ustida ishlash va matn yaratish faoliyatlarini qamrab oladi¹.

Zamonaviy ta'limda o'qituvchi faoliyati

Fan olamida modellashtirish atamasi tabiat va jamiyatning turli obyektlarini o'rganish usuli sifatida keng qo'llanilmoqda. Iqtisodiy aloqalar, biologik, fiziologik jarayonlar, ijtimoiy strukturalar, texnik vositalar, ekologik vaziyatlar va til xodisalari modellashtirilmoqda.

¹ Она тилидан янги тахрирдаги Давлат таълим стандартлари, ўқув дастури ва мавзуй режалаштириш. Тузувчилар. Р.Сафаров., Р.Йўлдошев., М.Мирмахсудова. – Т., 2004 й.

O'qituvchi faoliyati moduli muallifi N.Saidahmedov o'qituvchi faoliyati strukturasi anchagina mukammal yoritilgan. Unda o'qituvchi faoliyatiga alohida ahamiyat berilgan va u birlamchi mavqega ko'tarilgan. N.Saidahmedovning fikricha, darsning natijasi bevosita o'qituvchi shaxsiga, uning shaxsiy fazilatlari-yu, sifatlariga chambarchas bog'liq emas! Aslida ham yangi texnologiya bilan ishlayotgan o'qituvchi asosan ta'lim jarayonini, o'qituvchi faoliyatini boshqarish, nazorat qilish bilan shug'ullanadi.

Albatta, biz bu bilan dars sifati va samaradorligi o'qituvchi shaxsiga butunlay aloqador emas, deyishdan yiroqmiz. O'qituvchining ijobiy fazilatlari, dars berish mahorati qancha kuchli bo'lsa, o'qituvchi faoliyati shunchalik samarali bo'lishi shubhasiz, biz aytmoqchi bo'lgan fikr boshqa. Zamonaviy texnologiya asosida o'tilgan darsning ijobiy samarasi – o'qituvchi shaxsi va uning pedagogik mahorati mahsuligina emas, balki unda o'qituvchining, ya'ni o'rganuvchi subyektning ham ilmiy izlanishlari, ijodiy o'quv faoliyati, katta-kichik kashfiyotlari yotadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar hukmronlik qilayotgan bugungi kun ta'limida noan'anaviy interfaol usullar, yangicha yondashuvlar, doimiy ravishda rivojlanib, takomillashtirib boraveradi va bunday darslarda o'qituvchi shaxsi hukmronlikdan boshqaruvchilik tamoyiliga o'tadi.

Asosiy talab dars rejasida ko'rsatilgan faoliyat turlarining maqsadga muvofiq, aniq va mukammal bajarilishidir. Zero, zamonaviy darslarda faol ishlovchi – o'qituvchi, uning yo'naltiruvchi topshiriqlar, mustaqil izlanishlar natijasida egallagan BKMLari, ularning o'qituvchi nutqiy faoliyatiga, matn yaratish madaniyatiga ijobiy ta'siri – DTS talablarida ko'rsatilgan “ijodiy tafakkur sohibi”ga mos va xos bo'lgan natijadir.

Demak, N.Saidahmedovning o'qituvchi faoliyati moduli noan'anaviy usullarga va yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan zamonaviy dars tabiatiga ham mos keladi. Binobarin, u zamonaviy ona tili darsi strukturasi mustahkam o'rin olgan va biz tavsiya qilayotgan ongli verbal – kognitiv ta'lim tizimiga mohiyatan zid emas. Chunki OVKT tizimida ham o'qituvchi shaxsi

emas, balki uning maqsadli faoliyati, ya'ni tanlash, yo'naltirish, nazorat qilish, xulosalashi muhim o'rin tutadi.

Ko'rinadiki, o'qituvchi faoliyati modeli va OVKT ta'lim tizimi bir – birini inkor qilmaydi, aksincha, bir-birini to'ldiradi, zamonaviy ta'lim jarayonini, undagi subyektlarning o'rni, roli, funksiyalarini to'g'ri tushuntirishga yordam beradi.

Prezidentimiz I.Karimov an'anaviy ta'lim tizimi haqida to'xtalar ekan: "... maktablarimizda bolalar mustaqil fikrlashga o'rgatilmashligi, ta'lim jarayonida o'quvchi passiv tinglovchi, o'qituvchining faol ishlovchi, hukmron ekanligi..."ni qattiq tanqid ostiga oladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi bitiruvchisining (9-sinf) erkin fikrlash, mustaqil matn yaratish malakalari, sifati va darajasi ona tilidan DTSlari talabiga javob beradimi? Bu borada ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish qay ahvolda?

Mustaqil yaratilgan badiiy matn – o'quvchining imlo savodxonligi, ijodiy tafakkuri, so'z boyligi, nutqiy salohiyatini namoyish etuvchi ko'zgu, aks sado. Chunki o'quvchining ona tili ta'limi jarayonida egallagan bilim, ko'nikma va malakalari, ularning amaliy tadbiri – o'quvchining o'zi mustaqil yaratgan matndagina o'z ifodasini topadi. Zero, o'quvchining suhbatdosh fikrini qabul qilish va o'z fikrni ifodalashga qaratilgan ehtiyoji asosiga qurilgan amaliy faoliyatiga ona tilidan egalagan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, kommunikativ savodxonlik darajasining oshib borishi, matn yaratish ko'nikmalarining rivojlanishiga sabab bo'ladi. Ana shunday faoliyatgina ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish bo'yicha DTS talablariga mos keladi va o'quvchida ijobiy o'quv motivlarini hosil qiluvchi muhim didaktik vosita vazifasini bajara oladi.

Demak, mustaqil matn yaratish darajasi (o'quvchi ongida nutqiy tafakkurini kengaytirish, rivojlantirish va mustaqil matn yaratishga yo'naltirilgan lingvopsixologik o'quv topshiriqlar: rasmlil nutqiy vaziyatlar, muammoli savol va masalalar, qiziqarli dizayn; elektron slayd va versiyalar, axborot

texnologiyasi bilan to'yintirilgan ta'limiy – didaktik vositalar yordamida shakllantirilgan) egallangan BKMLarning amaliy tatbiqi darajasini aniqlashga xizmat qiladigan me'yorlar tizimida aks etishi kerak.

II BOB. ONA TILI MASHG‘ULOTLARIDA MUAMMOLI TA’LIM USULIDAN FOYDALANISH

2.1. O‘quvchilarga bilim berishda izlanishga asoslangan metodlardan foydalanish.

3.1. Ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalash – davr talabi

Garchi azim daraxt bo‘lsa, til

Matn undan yaralgan xosil,

Millat tafakkurini rivojlantiruvchi, undagi milliy mafkura, ma’naviy barkamollik, intellektual salohiyatni ko‘rsatib turuvchi asosiy mezon – tildir. Til barqaror hodisa, nutq esa beqaror – vaqtinchalik, u alohida shaxsning muayyan makon va zamondagi individual – intellektual ko‘rsatkichlari: ilmiy – ijodiy tafakkuri, aloqa – aralashuvi, ijtimoiy – siyosiy ehtiyojlarini kafolatlovchi, xususiy muloqot, ta’sir va aks ta’sir natijasini voqyealantiruvchi bosh vosita sanaladi. Insoniyatning ijtimoiy – siyosiy taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan ilmiy manbalarni avlodlarga meros qilib qoldirish uchun birdan – bir, yagona imkoniyat – matn esa kashfiyotdir, til umumiyliigi, matn esa xususiyliigi bilan go‘zal, til ijtimoiy muloqot mahsuli, matn – ijodiy tafakkur mahsuli, hazrati inson yaratilqlarining majoziy ramzi, aks sadosidir.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi asosida Davlat ta’lim standartlarining ishlab chiqilishi, umumiy o‘rta ta’lim yo‘nalishi, maktab ona tili va adabiyoti o‘qituvchilari oldiga ulkan vazifalarni qo‘ymoqda. O‘sayotgan avlodning mustaqil va ijodiy fikr egasi, ixcham va go‘zal nutq sohibi, nutqiy sharoitni to‘g‘ri baholay oladigan tadbirkor, vatan taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan, ma’naviy barkamol kishilar bo‘lib yetishishini ta’minlash – umumiy o‘rta ta’lim maktablari, o‘rta maxsus va kasb – hunar tizimi ona tili ta’limining bosh maqsadi hisoblanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ona tili ta’limini o‘rganishdan asosiy maqsad kommunikativ savodxonlikni rivojlantirish, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, qiroat va suxandonlik san’atidan boxabar, og‘zaki nutq hamda matn

yaratish ko'nikmalarini mukammal egallagan, ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalab yetishtirishdan iborat.

Davlat ta'lim standartlari ana shu ta'limiy maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi. Mazkur maqsaddan kelib chiqib, ona tili ta'limi:

- o'quvchilarning kuzatish, anglash va fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, alohidaliklarni ajratish, qiyoslash va tasnif qilish layoqatini, mantiqiy tafakkur darajasini o'stirishga; qiladigan o'zbek tilini jahon miqyosiga olib chiqadigan milliy kadrlar yetkazib berishga xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus va kasb – hunar kollejlari tizimi ona tili fani oldiga o'quvchidagi kommunikativ savodxonlik, nutqiy madaniyat, ijodiy tafakkurni rivojlantirish, o'z fikrini nutq sharoitiga mos ravishda mustaqil va erkin ifodalay olishga o'rgatishni o'z oldiga asosiy vazifa qilib qo'ydi. Buning uchun ona tili ta'limiy mutaxassislari:

- o'quvchilarning tevarak – atrofdagi buyum, narsa, hodisalar va ularning ilmiy – ijtimoiy mohiyati to'g'risidagi tasavvurlari doirasini kengaytirish;

- o'quvchilarda mazkur buyum va hodisalar orasidagi sabab, shart, oqibat, qarama – qarshi munosabatlar, to'g'ri va teskari aloqani aniq farqlash, voqeya hodisalarni analiz va sintez qilish, uni og'zaki va yozma holatlarda nutqiy vaziyat taqazosiga ko'ra to'g'ri va o'rinli tasnif qila bilish ko'nikmalarini shakllantirish;

- o'z fikrini erkin, ravon ifodalay olish, o'z ilmiy iqtidori, bilimi, ularni amaliyotga joriy etish orqali qo'lga kiritilgan ijobiy natijalarni (nutqiy mahorat, matn yaratish mahorati) boshqalarga ham yetkaza bilish malakalarini rivojlantirish ustida ishlashlari lozim.

Respublikamiz umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ona tili ta'limi samarasini oshirish, pedagog xodimlar va o'qituvchilar jamoasida ilmiy potensialni kuchaytirish, o'quvchi va o'qituvchilar o'rtasidagi mustahkam ijodiy hamkorlikni, haqiqiy ijodkorlik va izlanuvchanlik ruhiga yo'g'rilgan ijobiy – rivojlanuvchi muhitni hosil qilish shu kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib turibdi.

Xo'sh, maktab **o'quvchisini** o'quv jarayonining **subyektiga** (ishlovchisi – izlanuvchisi, ixtirochisi), **o'qituvchini** esa shu jarayonning **boshqaruvchisi** (izlanuvchan, ijodkor shaxs)ga aylantirishimiz uchun nima qilishimiz, ishni nimadan boshlashimiz, xususan, ona tili ta'limi samaradorligini oshirishning, o'quvchining og'zaki va yozma nutqini DTS talablariga mos ravishda to'g'ri, ravon shakllantirishning qanday usul va vositalaridan foydalanishimiz lozim?

- Avvalo, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 30 – 50 – yillarda shakllanib, to hozirgi kungacha ham davom etib kelayotgan o'qituvchi shaxsi, uning dunyoqarashi va tafakkuri ustuvorligiga asoslangan an'anaviy ta'lim tizimidagi eskirgan usullardan (o'qituvchi – tushuntiruvchi, o'quvchi - bajaruvchi) uzil – kesil voz kechishimiz;

- umumjahon pedagogikasi hamda til o'qitish metodikasida eng yangi hisoblangan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirilgan, o'quvchini izlanish va muammolarni yechishga yo'naltiruvchi, unda ijobiy o'quv motivlarini hosil qiluvchi o'quv – multimedia dasturlari, elektron o'quv adabiyotlari bilan modernizatsiyalashtirilgan ongli verbal – kognitiv ta'lim tizimi (kashfiyot ta'lim tizimi)ga intensiv sur'atda o'tishimiz;

- metodist olimlarimiz tomonidan tavsiya qilinayotgan ta'lim mazmunini takomillashtirish, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash sur'atini jadallashtirish, matn yaratish ko'nikmalarini mustahkamlash maqsadida modullashtirilgan yangi pedagogik texnologiyalarni yaratishimiz;

- ona tili ta'limi jarayonida o'quv – texnika vositalaridan foydalanishni maksimal darajaga ko'tarishimiz;

- muammoli ta'lim va interfaol metodlardan, ta'sir va aks ta'sir usullaridan unumli foydalanishimiz, **o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi ta'limiy – tarbiyaviy, ustoz – shogird munosabatlarini do'stlik va o'zaro ijodiy hamkorlik** darajasiga olib chiqishimiz;

- berilgan matn ustida ijodiy ishlash bilan boshlangan darsni yangi mustaqil matn yaratish – **kashfiyot** bilan tugallashga erishishimiz;

- o‘quvchini ishlovchi, izlanuvchi, kashfiyotchiga, o‘qituvchini esa izlanuvchi – boshqaruvchiga, o‘quvchi iste’dodining hali ochilmagan qirralarini kashf etuvchi, uni muammolar yechimini topish sari yetaklovchi jonkuyar yo‘lboshchiga aylantiradi!

Ona tili ta’limida o‘quvchilarning kommunikativ savodxonligini ta’minlash – so‘z boyligini oshirish, nutqiy mahoratni shakllantirish, o‘quvchini muomila – muloqot san’atidan xabardor qilish, turli mazmun va shakllardagi munoshaot matnlari, badiiy – ramziy matnlar ustida. Ijodiy ishlash, egallangan BKMLar asosida kichik matnlar, monolog va dialoglar tuzish orqali o‘quvchini mustaqil matn yaratishga o‘rgatish kabi ijobiy o‘quv motivlarini hosil qilishdan iborat bo‘lib, u ona tili ta’limi samaradorligini oshirishning eng muhim va zarur omillardan biri sanaladi.

Zero, mustaqil yaratilgan matn – o‘quvchi tafakkuri, intellektual qobiliyatining voqealanishi, tugal bir mazmunning o‘quvchi tomonidan kashf etilishi, yuzaga chiqishidir.

Matnlar o‘zining qator xususiyatlari bilim bir – biridan farq qiladi. O‘quvchi matn ustida ishlar ekan turli murakkablik, qiyinchiliklarga duch keladi, muammoli vaziyatdan chiqish, uning yechimlarini topish yo‘llarini qidiradi. Matn ustida ishlash faoliyati faqat darslikda berilganlari bilan chegaralanib qolmasdan, ilmiy va badiiy adabiyot, davriy matbuotdan tanlab olingan matnlar, audio – videolavhalar ustida ishlash ham o‘quvchilar uchun qiziqarli va zavqli bo‘lishi tabiiy.

Ona tili ta’limida matn ustida ishlash usullari bag‘oyat xilma – xil. Biz quyida ularning ayrimlari xususida fikr yuritamiz.

Grammatik usul (an’anaviy amaliyot)

1. Berilgan matndan o‘rganiladigan mavzuga oid so‘zlarni ajratish, ularni so‘z turkumlari bo‘yicha guruhlash, so‘z yasovchi, o‘zgartiruvchi va shakl yasovchi qo‘shimchalarni guruhlash.

1. Matndagi sodda gaplardan qo‘shma gaplar hosil qilish va aksincha, qo‘shma gaplarni soddalashtirish.

2. Ajratilgan sodda va qo'shma gaplarni sintaktik tahlil qilish;
3. She'riy asarlar mazmunini nasriy yo'l bilan so'zlab berish;
4. Matndagi qo'shma gaplarni ajratish, turlarini aniqlash;
5. Berilgan gapni morfologik yoki sintaktik tahlil qilish v.h.

Ijodiy usul (yangilangan amaliyot)

1. Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ibora va tasviriy ifodalar bilan almashtirish, ularning lug'aviy ma'nosini aniqlash va sharhlash;
2. Ajratilgan so'zlarga ma'nodosh, uyadosh, shakldosh va zid ma'noli so'zlar topish va ularning lug'aviy ma'nosini aniqlash va sharhlash;
3. Ilmiy uslubdagi matnni badiiy uslubdagi matnga aylantirish;
4. Matnning mazmunini saqlagan holda shaklini o'zgartirish;
5. Matndagi gaplarni kengaytirish (ixchamlash);
6. Boshlanish qismi berilgan matnni davom ettirish;
7. Muammoli matn ustida ishlash va yechimni topish;
8. Berilgan so'z (so'z birikma, gap) asosida mustaqil matn yaratish;
9. Berilgan elektron tasvir (rasm, chizma, jadval) asosida badiiy (ilmiy, tavsifiy, nazmiy) matn yaratish v.h.

Tabiiyki, ijtimoiy jamiyatda yashovchi har bir shaxs yoshligidanoq o'zaro muloqot, muloqot jarayonida fikrlash va fikr ifodalash zaruriyatini chuqur his qiladi. Insonning ma'naviy hayoti mazmunini tashkil etuvchi asosiy manba – nutqiy muloqot hisoblansa, insoniyat erishgan taraqqiyot, madaniy merosni keyingi avlodlarga yaxlit holda yetkazishning eng ishonarli yo'li – ijodiy tafakkur mahsulini yozma ifodalash – mustaqil matn yaratish malakasini egallashdir. Bunday malakaga ega bo'lishning birinchi sharti – o'quvchilarni tayyor matn ustida ishlashga o'rgatish, matn tarkibida mavjud bo'lgan mantiqiy va uslubiy nuqsonlarni qiyinchiliksiz aniqlash va bartaraf etish, matn mazmuni, shakli va uslubini turfa yo'nalishda qayta ishlash (ixchamlash, kengaytirish, matn tilini boyitish (epigraf, sitata, ibora va tasviriy vosita, maqol, hikmatli so'zlar kiritish)) ko'nikmalarini shakllantirish, matnni tahlil va tahrir qilish yo'llarini o'rganishga yo'naltirishdir. Grammatik shakllarni o'rganishdan

maqsad – o‘rganilayotgan lisoniy qonuniyatni nutq tarkibida tahlil qilishni nazarda tutadi. Otlarni alohida turlash, fe’llarni tuslash, fonetika, morfemika, morfologik – grammatik – sintaktik qonun – qoidalarni chuqur va keng ko‘lamda o‘rganish foydali, bil’aks mazkur faoliyat o‘quvchi ongida mustaqil matn yaratish ko‘nikmalarining shakllanishi va avtomatlashuviga yetarlicha foyda bermaydi. Bunda shakl, mazmundan ajraladi, shaklni anglatgan ma’nolari to‘laligicha ochilmay qoladi. Aksincha, til hodisalari nutq tarkibida tahlil qilinsa, til bo‘limlarini o‘rganish matn yaratish va matn tahlili bilan birgalikda, o‘zaro uyg‘unlikda olib borilsa, o‘quvchilar shakl va mazmun o‘rtasidagi turli – tuman bog‘lanishlarni anglab yetadi va o‘z nutqiy faoliyatiga tadbiiq etadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarida mustaqil matn yaratish ko‘nikmalarining shakllanishida topshiriqli mashqlar tizimidan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday topshiriqlar o‘quv maqsadiga ko‘ra 2 turga bo‘linadi:

1. Ta’limiy mashqlar. 2. Nazorat mashqlari.

Bajarilish o‘rniga ko‘ra sinf ishlari va uy ishlari farqlanadi.

Fikr ifodalash shakliga ko‘ra og‘zaki va yozma, analitik – sintetik va sintetik mashqlar uchraydi.

Bog‘lanishli nutqni rivojlantirishga qaratilgan mashqlardagi topshiriqlar tayyor va yaratilajak matnlar ustida olib boriladigan o‘quv faoliyatini o‘z ichiga oladi.

Analitik xarakterdagi tayyor matnlar ustida ishlashda quyidagi o‘quv topshiriqlaridan foydalanish mumkin:

- tanlangan matnga sarlavha toping;
- kirish so‘z (asosiy qismni, xulosani)ni ixchamlang;
- berilgan matnda mavjud bo‘lgan imloviy xatolarni to‘g‘rilang;
- gaplarda so‘z tartibi, tinish belgilarning ishlatilishida yo‘l qo‘yilgan xatolarni tuzating;
- uslubiy va imloviy xatoli matnlar ustida ishlang;

- berilgan matndan kengaytirilishi (ixchamlanishi) mumkin bo'lgan gaplarni toping va bartaraf qiling;

- berilgan matndan noo'rin ishlatilgan so'zlar, so'z birikmalari, sitatalarni toping va bartaraf qiling;

- berilgan matnga mos keladigan maqol, hikmatli so'zlar, ibora va tasviriy ifodalar toping. Ularni matn tarkibiga kiriting;

- berilgan matn bilan tuzatilgan (kengaytirilgan) matnni qiyosiy tahlil qiling;

- nima uchun matnda berilgan so'zni (so'z birikma, ibora, tasviriy ifoda) almashtirganingizni tushuntiring;

- siz kiritgan tuzatish matn uchun zarurligini isbotlang v.h"

O'quvchi ongida matn ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish jaryoni ona tili ta'limida o'ta muhim va mas'uliyatli davr bo'lib, unda o'quvchi monologik va dialogik matn turlarini o'rganish bilan birga matn ustida ishlash mahoratini egallashga ham yo'naltiriladi. Matn ustida ishlash, avvalo, o'quvchidan matn va uning turlari, matn qismlarining o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash, matn tarkibi, uning qurilishi, uslubi, tili haqida muayyan bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlikni talab qiladi. Matn bilan yuzma – yuz bo'lgan 8 – 9 – sinf o'quvchisi uning qaysi matn turiga kirishini qiyinchiliksiz farqlashi, matnning tarkibiy qismlari – kirish, asosiy qism, xulosaning mavjudligi, matnning qaysi sohaga, qaysi janrga mansubligini bir qarashda bilishi lozim bo'ladi. Quyida 5 – 9 – sinflar ona tili ta'limida o'rganiladigan monologik matn turlari va uning xususiy jihatlarining qisqacha tasnifi keltiriladi:

1. **Rivoyat matn** (Sharq faylasuflarining ilmiy merosi, axloqiy tarbiya va ma'naviy – ma'rifiy dunyoqarashlar, ibora, hikmatli so'z va maqollarning kelib chiqishi, etimologiyasi, talqini v.h);

2. **Tasviriy matn** (tevarak – atrof: daraxt, bino, gulzor, maktab bog'i, oshxonasi, rasmlar, narsa – buyumlar tasviri v.h.);

3. **Muhokama matn** (ilmiy asar, badiiy kitob, shaxsning individual xususiyatlari, yurish – turishi, xulqi – odobi, muomala madaniyati, biror sohaga qiziqishi borasida munosabat bildirish v.h.);

4. **Ilmiy – grammatik matn.** Ona tili fani bo‘limlari va mavzulari, ularning ilmiy talqini, kommunikativ jadvallar tasnifi (mas., olmosh va uning turlari tasnifi v.h.);

5. **Ma’rifiy matn.** Mashhur shaxslar hayoti, ilmiy – ijodiy faoliyatini elektron tasvir orqali yoritish, ularning tarjimai holi, yaratgan ilmiy yangiliklari, san’at asarlari madaniy merosi haqida to‘xtalish v.h.;

6. **Ixtisosiy matn.** Muayyan kasb – hunar, ilm – fan, texnikaga oid hususiy atamalar ishtirokida, ma’lum maqsad (ma’lumot, axborot, ma’ruza) aniq soha yo‘nalishida yaratilgan matn v.h.;

7. **Munshaot matnlari:** Rasmiy hujjat matnlari, Shaxsiy hujjatlar: ariza, tilxat, bildirishnoma, shartnoma, guvohnoma, diplom...,

8. **Nazmiy matnlar:** Bayt, to‘rtlik, sakkizlik, she’r, tuyuq, qo‘shiq, o‘lan, doston, poema, muvashshah... v.h.

O‘quvchilarni matn yaratishga tayyorlashda uyadosh va ma’nodosh so‘zlar ustida ishlash ham alohida o‘rin tutadi. Ma’nodoshlar – yaratilgan matn tilini boyitish, badiiy bo‘yoqdor so‘zlarni tanlash, ularni iboralar bilan almashtirish, ularni o‘z matnda qo‘llashning eng ishonchli va mahsuldor usuli. Uning shakl va usullari nihoyatda xilma – xil. Ularning eng keng tarqalganlarini o‘quvchilarga eslatish, mavzuga oid ijodiy va mustaqil ishlar bajarish, masalan, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5 – sinflari uchun yaratilgan elektron o‘quv qo‘llanmadagi “Leksikologiya” slaydidan foydalanib, ma’nodosh va uyadosh so‘zlar mavzusiga oid nazorat testlari tuzish va ularni guruh oldida himoya qilish o‘quvchilarni mustaqil matn yaratishga tayyorlashda o‘ta foydali o‘quv topshiriqlaridan hisoblanadi.

Bunday ijodiy – amaliy ishlar, og‘zaki va yozma nutqni ma’nodosh va uyadosh so‘zlar bilan boyitishda muhim o‘rin egallaydi.

An'anaviy ta'limning kammahsul, tahliliy usullaridan voz kechib yangi, "o'quvchi – ta'lim - o'qituvchi" tizimiga o'tish, ta'lim jarayonini ilg'or o'quv texnologiyasi yutuqlariga asoslangan, zamonaviy didaktik materiallar (rangli slaydlar, muayyan o'quv dasturi kiritilgan disketlar; audio – video kasetalar v.h.) bilan qurollantirish, o'quvchilarni jahon ta'lim standartlari talabalariga mos keladigan yangi avlod darsliklari va dasturlari bilan ta'minlash – o'quvchilarda mustaqil matn yaratish jarayonini jadallashtirish va shunday ko'nikmalarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

1 – topshiriq. Ekrandagi matnni diqqat bilan o'qing. Unga sarlavha tanlang. Unda nechta qo'shma, nechta sodda gap mavjudligini aniqlang. Matnning necha qismdan iboratligini, "oq ko'ylakli qiz"ning kim bo'lishi mumkinligini ayting.

Zarifa qayoqqadir ketgan, olmazorda hech kim ko'rinmas, faqat qushlarning chug'ur – chug'uri eshitilar, qayerdadir, yaqinda tinmay bulbul sayrardi. Vohid har biri naq piyoladay keladigan oppoq olmalarning og'irligidan yerga tegib qolgan darax shoxlarini ehtiyotlik bilan chetga sura – sura bog'ning ichkariga qarab yurdi.

To'satdan daraxtlardan biri qattiq silkindi, yomg'irdek duv to'kilgan olmalar Vohidning boshiga, yelkasiga tushdi. So'ngra nimadir "chirs" etib singandek bo'ldi, kimdir qulagandek tuyuldi va boshini qo'llari orasiga olib, bukilib qolgan Vohidning oldida oq ko'ylakli, nozikkina uzun bo'yli bir qiz paydo bo'ldi...

2-topshiriq. Matndagi qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar, ularning o'zaro bog'lanish vositalarini belgilang, matnning imloviy – uslubiy nuqsonli qismini aniqlang.

3 – topshiriq. Matnni o'z tasavvuringiz asosida davom ettiring. Xulosa qiling.

Bunday amaliy mashg'ulotlarni ona tili darslarida muntazam, izchil pedagogik tizimda tashkil etish, o'quvchilarning faqat o'zigagina xos va mos bo'lgan individual uslubni ("o'z" uslubini) aniqlash va tanlay olishiga yordam

beradi. O‘quvchining yozma nutqidagi uslubiy ravonlik va mantiqiy mukammallik darajasini oshiradi, mustaqil matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantiradi, rivojlantiradi.

O‘quvchilar tomonidan yaratilgan ixtisosiy matn (biologiya faniga oid) namunasi. Biologik matnga qo‘yiladigan xususiy talablar tizimi:

Biologiya faniga oid ixtisosiy matnlar yaratish uchun o‘quvchilar qanday mavzularni bilishi, qaysi masalalarga o‘z munosabatini bildirishi va matn tarkibida qanday nutq vositalarini qo‘llash mumkinligi haqida o‘quvchiga qisqacha ma‘lumot berilishi maqsadga muvofiq. Yaratiladigan matn tarkibi to‘g‘ri shakllantirilishi, mazmundor va foydali bo‘lishi uchun esa o‘quvchining muayyan tizim asosida fikr ifodalashi zarur bo‘ladi. Mas:

1. **Kirish.** Matnda tavsif qilinayotgan o‘simlik yoki hayvonning yashash hududlari, qanday turga oidligi.

2. **Asosiy qism.** Oziqlanishi, hosildorligi, parvarishlash va ko‘paytirish usullari:

3. **Xulosa.** O‘simlik yoki hayvonning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va ahamiyati, ekologik muammolar va ularning oldini olish usullari haqida bo‘lishi mumkin.

Namuna:

Hisor qo‘ylari

Hisor qo‘ylari O‘zbekistonning tog‘li mintaqalarida boqiladigan uy hayvonlari turiga kiradi. Yozda, tog‘ yonbag‘irlarida o‘tlab yurgan katta – kichik qo‘y suruvlariga duch kelish mumkin.

Qo‘ylar o‘t – o‘landan tashqari yem (makkajo‘xori, arpa, bug‘doy, suli) bilan oziqlantiriladi. Ular qish va erta bahorda qo‘zilaydi. Qo‘zichoqlar 1 – 2 ta, ba‘zan 3 ta ham tug‘ilishi mumkin.

Hisor qo‘ylari dumli qo‘ylarga nisbatan ancha katta, oyoqlari uzun va baquvvat bo‘ladi. 3 yoshli qo‘chqorlar 80 – 100 kilogrammaga go‘sht berishi mumkin. “Qo‘chqor urishtirish” o‘zbek xalqining qadimiy, ko‘ngilochar

o‘yinlaridan biri. Bayramlar, to‘y –yu tomoshalarda katta sovrin tikilib qo‘chqor urishtirish musobaqasi”, “ko‘pkari”, “uloq”lar o‘tkaziladi.

O‘zbeklar qo‘y go‘shini sevib iste‘mol qiladilar. O‘zbekning palovini qo‘y yog‘i, qo‘y go‘shisiz tasavvur qilish qiyin. Tog‘ archasi shoxlari bilan dimlab pishiriladigan “tandir kabob” esa chet ellarda ham mashhur.

Qo‘y – yetti xazinaning biri.

Mustaqil ish: Matnni ifodali o‘qing, uni tarkibiy qismlarga ajrating.

Matnga yangi sarlavha tanlang.

2-topshiriq. Yuqoridagi tavsiyalar va yaratilgan matndan foydalanib, “Paxta” sarlavhali kichik matn yarating. Namuna:

Paxta

Paxta – O‘zbekistonda yetishtiriladigan asosiy qishloq xo‘jalik mahsulotlaridan biri hisoblanadi.

Paxta – madaniy, sanoatbop o‘simliklar sirasiga kiruvchi g‘o‘zaning hosili. O‘zbekistonda uning asosan 2 xili uchraydi: oddiy tolali va ipak tolali paxta. Ipak paxtaning oddiy paxtaga nisbatan tolasi uzun, sifatli va mustahkam, rangi sarg‘ish, chanog‘i kichikroq bo‘ladi. Paxtadan ip yigirilib, turli matolar to‘qiladi, chigitdan esa yog‘, sovun, uy hayvonlari uchun yemish v.h.lar olinadi.

Paxtaning inson hayotida tutgan o‘rni juda muhim. O‘zbek paxtasi chet elliklar, asosan Shimoliy mintaqada joylashgan hamdo‘stlik mamlakatlariga sotiladi. Ulardan esa paxta hisobiga texnik vositalar, ip yigiruv, to‘quv dastgohlari sotib olinadi.

Paxta xalqimizning bebaho boyligi v.h.

Ona tili ta‘limida o‘quvchilarning matn ustida ishlash amaliyoti asosan, ikki turga ajratiladi: - tayyor matnlar ustida ishlash; - o‘quvchi tomonidan yaratilgan matnlar ustida ishlash.

O‘quvchilarda matn ustida mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun o‘qituvchi tomonidan tavsiya qilinadigan tayyor matnlar 5 – 9 – sinflar uchun ona tili o‘quv dasturi talabi asosida tanlanadi. Mazkur matnlarning muallifi aniq bo‘lishi, u birorta ilmiy yoki badiiy asardan parcha, ma‘rifiy matn,

kichik hikoya, rivoyat, qissa, munshaot matnlari; tavsifnoma, ma'lumotnoma, tilxat, maktub, ma'ruza, nazmiy matnlar bo'lishi mumkin.

Tayyor (berilgan) matnlar ustida ishlashda, asosan, DTS va me'yoriy talablarga rioya qilish, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi amaliy ishlar bajarish, muayyan mavzudagi BKMLarni egallashga qaratilgan o'quv topshiriqlaridan foydalanish mumkin. Bundan tashqari matnning turi, qaysi uslubga xosligini aniqlash; matn qurilishi, tarkibi, tashkil etuvchi qismlari, tili haqida zaruriy tushunchalar hosil qilish, matndagi gaplarni sodda yoyiq va sodda yig'iq gaplarga ajratish; sodda yoyiq gaplarni ajratilgan bo'lakli va uyushiq bo'lakli guruhlarga ajratish; gap markazi – kesimni topish, undan savol berish yo'li bilan ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, holni aniqlash, ularning qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganligini belgilash; so'zlarni uning uyadoshlari, ma'nodoshlari, muqobillari, zid ma'nolari bilan almashtirib, gaplarning shakli va mazmunini o'zgartirish; inversiya hodisasiga asosan gaplardagi so'z tartibini o'zgartirib ko'rish, yoyiq gaplarni yig'iq gaplarga aylantirish va aksincha; matndagi sodda gaplarni ohang va bog'lovchilar yordamida o'zaro biriktirib, qo'shma gaplar hosil qilish, bir necha ergash gapli qo'shma gaplarni sodda uyushiq bo'lakli gaplarga aylantirish, tinish belgilari ustida ishlash v.h.

Matnni kengaytirish. Matnga epigarf tanlash, matnni badiiy bo'yoqdor so'zlar, kiritmalar, sana, faqat va dalillar, maqol, matal, hikmatli so'zlar, kelgan so'zlarni aniqlovchi (so'z kengaytiruvchisi) vositasida kengaytirish; kesimdan savol berib gaplarni kengaytirish, qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni ajratish, gap tarkibiga uyushiq bo'laklar, ajratilgan bo'laklar, undalmalar kiritish, ular orasidagi grammatik va sintaktik, bog'lanishlarni aniqlash, belgilash, ularni boshqalari bilan almashtirish, kirish so'z va xulosalar tarkibiga o'z nuqtai nazari bo'yicha qo'shimchalar kiritish, ilmiy matnni badiiy matnga (yoki aksincha) aylantirish (mazkur amaliy ishlar jarayonida so'z kengaytiruvchilari (aniqlovchi, to'ldiruvchi) va gap kengaytiruvchilari¹ (hol, ega, kesim)dan samarali foydalanish).

¹ М.Қурбонова ва бош., Ўзбек тилининг структурал синтаксиси. – Т., 2004.

Matnni ixchamlash. Matn mazmunini o'zgartirmagan holda matnda mavjud bo'lgan ortiqchaliklar: shaxs va narsa – buyumning to'liq tasviri, tarjimai hol, portret, peyzaj ko'rinishlari ifodasini maksimal darajada kamaytirish, matnni takrordan tozalash, imloviy, mantiqiy, uslubiy xatoli so'z, gap, iboralarni topish, ularni bartaraf etish, sodda gaplarni qo'shma gaplarga aylantirish, qo'shma gaplarni so'z va gap kengaytiruvchilaridan holi qilib, uyushiq bo'lakli gaplarga aylantirish, lirik chekinish, badiiy tasvirlarning o'rinli – o'rinsizligini aniqlash, matn mazmuniga mos kelmaydigan ma'lumot va kiritmalardan voz kechish yoki ularni kamaytirish, abzaslarni birlashtirish, MSBlarni qisqartirish v.h.

Kirish qismi berilgan matnni davom ettirish. Tashkiliy qismlari aralash bo'lgan matnlarni tartibga keltirish; matn tarkibiy qismlarining mavjudligi, joylashish o'rnini aniqlash, gapda so'z tartibiga rioya qilingan – qilinmaganligiga ahamiyat berish; badiiy bo'yoqdor gaplarni she'r qatorlarga aylantirish (ijodiy ish) va aksincha, she'riy matnni nasriy holatga keltira olish ko'nikmalarini shakllantirish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini matn ustida ishlash usullari bilan tanishtirishda quyidagi ko'rsatmalarga amal qilish yaxshi samara beradi;

- o'quvchilarda o'zbek adabiy tilining boy uslubiy zaxiralari hamda funksional – ekspressiv imkoniyatlariga oid nazariy bilimni mustahkamlash;

- matnning muayyan emotsional – ekspressiv bo'yog'i: tantana, xush kayfiyat, lirik – intim, nazokatlilik, kinoya, ta'na, e'tiroz kabi ma'no farqlarini anglash va uni nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri, ravon ifodalash qonuniyatlari bilan tanishtirish;

- til vositalarining matnda funksional tabaqalashuvchi, uslubiy ixtisoslashuvi va uslubiy me'yorlariga oid bilim ko'nikma va malakalarni chuqurlashtirish;

- o'quvchilarni berilgan yoki yaratilgan matnni shakl va mazmun yaxlitligi talabi asosida tanqidiy baholashga odatlantirish, mantiqiy va uslubiy

jihatdan mukammal bo'lgan ilmiy – grammatik, badiiy (nasriy va nazmiy), badiiy – ramziy, munshaot (ariza, tilxat, tarjimai hol, maktub, majlis bayoni, tavsifnoma, annotasiya. Tezis, taqriz, shartnoma v.h.) – monologik matnlarni farqlash va shunday matnlarni qiyinchiliksiz tuzishga odatlantirish;

- matnda muayyan uslubning yuzaga kelishida tilning barcha sathlariga aloqador so'z va so'z birikmalarining baravar ishtirok etishi lozimligi, matnda gaplararo, abzaslararo bog'lanishga rioya qilish, fikrni tugallab, keyingi xatboshiga o'tish, xatboshini yangi tushuncha bilan boshlash kabi zaruriy maqsadlarga erishish imkoniyatining MYaBT – 4 modulining 1 – bosqichidagi uyadosh so'zlar tanlash topshirig'ini bajarish jarayonida qo'lga kiritilishi mumkinligini o'quvchi ongiga singdirish;

- o'quvchi ongida mavjud bo'lgan milliy tilning uslubiy imkoniyatlaridan unumli foydalanish, bolani turli nutqiy vaziyatlarga olib kiruvchi, unda nutqiy vaziyat va sharoit talabiga ko'ra to'g'ri va o'rinli fikr ifodalash mahoratini o'stiruvchi, muammoli ta'lim texnologiyasi yutuqlarini egallash va ta'lim jarayoniga tatbiq etish orqali mustaqil va ijodiy matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirish;

- umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari matn ustida ishlash va matn yaratishni o'rganish jarayonining o'zaro aloqadorlikda olib borilishiga erishish, ularda ma'lum bir mazmunni turli shakl va uslubda bayon etish ko'nikmalarini shakllantirish, gazeta, jurnal, badiiy va ilmiy adabiyot manbalari, kompyuter axborot bankida va internet tizimida saqlanayotgan turli axborotlar, mavzuga oid ma'lumotlardan (mavjud imkoniyatlar doirasida) foydalanishga odatlantirish;

- matnni imloviy – uslubiy, mantiqiy, lisoniy va badiiy jihatdan tahrir qilish, uslubiy g'alizlik va nuqsonlarni topish, ularni mustaqil bartaraf etish sirlarini o'rganish;

- badiiy – ijodiy ishlar: lavha, esse, rivoyat, xabar, munshaot matnlari, hikmatli so'z va maqolalar tavsifi, ramziy – badiiy insholar, maktub, tabrik reklama yozish usullarini (maxsus o'quv topshiriqlari asosida) o'rganish;

- o'quvchi ongida matn sarlavhasiga qarab, umumiy shakl va mazmuni belgilash, mavzu yo'nalishi, maqsadiga mos uslub va janrni mustaqil tanlash ko'nikmalarini shakllantirish, unda shu mavzuga mos adabiyotlar, ilmiy materiallar, maqolalar yig'ish ko'nikmalarini shakllantirish.

2.2. O‘quvchilar faolligini oshirish omillari. Ta’limning bugungi vazifalaridan biri o‘quvchilarni mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o‘rgatishdan iboratdir. O‘quvchilarning mustaqil ishlash samaradorligini oshirish, ularning o‘quv faniga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirish, bilimlarini chuqurlashtirish nazariy va amaliy mashg‘ulotlar uyg‘unligida, ularning faolligini oshirish asosida amalga oshirilishi lozim.

Hamkasblarim va shogirdlarimning darslarini kuzatib, tahlil qilish asnosida uyga vazifa berish va uni o‘z vaqtida so‘rab olishdagi e’tiborsizlik bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladigan omillardan biri sifatida namoyon bo‘lganligi kuzatildi.

Shundan kelib chiqqan holda darsning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan mazkur jarayonga muntazam e’tibor berish talab etiladi. Uyga vazifa berishda quyidagilarga rioya qilish maqsadga muvofiq deb o‘ylayman:

- yozma ish tahlillari o‘z vaqtida talabalar darajasida o‘tkazilib, xatolar ustida ishlashni uyga vazifa qilib berilishi;
- uyga vazifaning individuallashtirib berilishi (zukkolarga qo‘shimcha topshiriqlar, past o‘zlashtiruvchilarga esa yengillashtirilgan variantda);
- o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan materialni takrorlashga yetarli e’tibor qaratish;
- uyga berilgan vazifani munazam ravishda, o‘z vaqtida so‘ralib, baholanishi, o‘quvchilarni rag‘batlantirib borish.

Shuningdek, bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlash uchun ta’limda faollashtirish usulini qo‘llash lozim.

Faollashtirib o‘qitish uchun o‘qituvchi quyidagilarga e’tibor berishi zarur:

1. Yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llagan holda darslarning noan’anaviy shakllaridan ko‘proq foydalanish:

- a) musobaqa darslari;
- b) munozara darslari;
- v) konferensiya darslari;

g) sayohat darslari;

d) ko‘rik darslari.

2. Maktabda o‘quvchilarning ijodiy ishlashlariga qaratilgan tadbirlar, kechalar, mushoiralar va intellektual o‘yinlarni o‘tkazish.

3. Seminarlar, pedagogik o‘qishlar, kitobxonlar konferensiyalari tashkil etib, o‘qituvchi va o‘quvchilar tajribasini o‘rtoqlashish va ommalashtirish.

4. Ilg‘or tajribalarni o‘rganish va ularni amalda qo‘llashga erishish (buning uchun VXTB, TXTB va maktab rahbarlari markazdan yetkazilgan uslubiy qo‘llanmalar, dars ishlanmalari, har xil yo‘riqnomalarning har bir maktabdagi o‘qituvchilarga yetib borishiga erishishlari lozim).

5. Maktablararo fanlarni chuqur o‘rganuvchi “klublar”, “jamiyatlar”, “kichik fan akademiyalari”ni tashkil etib, ularning faoliyatini rivojlantirish maqsadida olimlarni jalb etish kerak.

ФАОЛЛАШТИРИШ ТАМОЙИЛЛАРИ		
Ўқувчиларда ташаббускорликни шакллантириш	Мустақил ва эркин фикрлашга ўргатиш	Чуқур билим олишга ҳаракат қилишни шакллантириш
ДТС талаблари асосида билим, кўникма ва малакаларни сингдириш	Ўқувчиларни атроф- муҳитни кузатиш ва таҳлил қилишга ўргатиш	Мантиқий фикрлашга ўргатиш
Хотирани мустаҳкамлашга ўргатиш	Кўрган- билганларини ижодий тасвирлай олишга ўргатиш	Ўз фикрларини чиройли ифодалай олиш ва далиллай олишга ўргатиш

Faollashtirish tamoyillari (1-jadvalga qarang).

Men darslarda o‘quvchilarning darsga qiziqishini, faolligini oshirish, mustaqil ishlashga o‘rgatish uchun bir qancha pedagogik texnologiyalardan foydalanib kelmoqdaman. Shundan ayrimlarini siz bilan o‘rtoqlashmoqchiman.

Breynstorming.

Bu atama inglizcha so‘z bo‘lib ikki tushunchadan iborat: brain – miya, storming – hujum, bo‘ron, qattiq hayajon. Bu uslubning “Miyani hayajonga solish” deb yuritilishi. Uning asl mohiyatini ochib beradi, lekin ba’zida uni “Jamoaviy ijodiy fikrlash” deb ham tushunsa bo‘ladi. rus tilida “Mozgovaya ataka”, o‘zbek tilida esa “Aqliy hujum” yoki “Fikrlar hujumi” deb ham yuritiladi.

Bu texnologiyadan ona tili va adabiyot darslarida ham foydalanish mumkin. Masalan, o‘tilgan va uzoq o‘tilgan mavzular tezkor savollar shaklida beriladi, qisqa javoblar orqali o‘quvchilar xotirasi mustahkamlanadi, darsda berilgan bilimlar charxlanib, ko‘nikma va malakalar hosil qilinadi. O‘quvchilarda topqirlik, hozirjavoblik xislatlari tarkib toptiriladi. Masalan, 8-sinf ona tili fanidan “murakkab ot kesimlarning tuzilishi” mavzusida bu texnologiyadan quyidagicha foydalanish mumkin.

1. Kesimlar tuzilishiga ko‘ra necha xil bo‘ladi? (2 xil – sodda va murakkab).
2. Birgina so‘z bilan ifodalangan kesim nima deyiladi? (Sodda kesim).
3. Qanday kesimlar murakkab kesim deyiladi? (Ikki va undan ortiq so‘z bilan ifodalangan kesimlar).
4. Kesim bilan egani bog‘lashga xizmat qiluvchi so‘z nima? (Bog‘lama).
5. Qaysi so‘zlar bog‘lama vazifasida keladi? (Kerak, zarur, darkor, lozim).
6. Modal so‘z bilan ifodalangan kesim qanday kesim deyiladi? (Ot kesim).
7. Ot kesimlar qanday ifodalanadi? (Sof fe‘l, ravishdosh, sifatdosh).

Javoblar bir daqiqadan kechikmasdan aytiladi. Shu tariqa 2-3-guruhlarga ham “Aqliy hujm” uyushtiriladi.

Tarmoqlar yoki klaster. Fikrlarning tarmoqlanishi pedagogik strategiya bo‘lib, u o‘quvchilarning biror-bir mavzuni chuqur o‘rganishlariga yordam berib, ularga mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrlarni erkin va ochiq uzviy bog‘langan ketma-ketlikda tarmoqlashni o‘rgatadi. Fikrlarni tarmoqlash quyidagicha tashkil etiladi:

1. Xayolga kelgan har qanday fikr bir so‘z bilan ifoda etilib, ketma-ket yoziladi.

2. Fikrlar tugaguncha yozishda davom etiladi va agar ular tugab qolsa, u holda yangi fikr kelgunga qadar mashq tahlil etiladi yoki gaplar tuzdiriladi.

3. Darsda imkoni boricha fikrlarning o‘zaro bog‘liqligi va ketma-ketligini ko‘paytirishga harakat qilish lozim.

Bu texnologiyadan ham ona tili va adabiyot darslarida foydalanish mumkin. masalan, 5-sinfda “Uyadosh so‘zlar” mavzusida uni quyidagicha qo‘llash mumkin:

Kungaboqar texnologiyasi o‘quvchilar guruhlariga bo‘linadi. O‘qituvchi mavzudan kelib chiqib, bitta muammoni yoki asosiy muammodan kelib chiqib, har bir guruhga bittadan muammo tashlaydi. Har bir guruh kungaboqar yasab, uning markaziga doira joylashtirib, barglarni yopishtiradi, mavzuga qarab, doiraga yo umumiy bitta muammo yoki har bir guruhning muammolari yozilib doskaga ilinadi (yetarli miqdorda qog‘oz, barglar oldindan tayyorlab qo‘yilishi kerak).

Ajratilgan vaqt ichida guruhlar birgalikda fikrlashib, umumiy yoki birlarining muammolari bo‘yicha fikr almashmoqchi bo‘lsalar, fikrlarini bargga yozib, uni o‘sha guruh muammosi yozilgan gulga joylashtirib qo‘yadilar va har bir guruhning “Muammoli guli” vaqt o‘tishi bilan o‘sib boraveradi.

O‘qituvchi barcha guruhlar qatnashchilariga muammoning eng qulay yechimi yo‘llarini topishga doim yordam berib boradi.

Bu texnologiyalardan o‘tilgan mavzuni tushuntirish, uni mustahkamlash, takrorlash yoki o‘quvchilar egallagan bilimlarni aniqlashda foydalanish mumkin. kungaboqar texnologiyasi o‘quvchilarni muammolarni yechish,

umumlashtirish, mustaqil fikrlash va fikrlarini erkin bayon etishga o'rgatadi. Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanganda, har bir o'quvchi bilan individual ishlash imkoniyatlari yaratiladi.

Umuman olganda, ona tili darslarida o'qituvchining o'quvchilar bilan hamkorlik faoliyatini tashkil etishda interfaol metodlardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

III BOB. ISHNING AMALIYOTGA TADBIQI

3.1. Umumiy oʻrta taʼlimda oʻquvchilar faolligini oshirishga qaratilgan oʻyin-topshiriqlardan foydalanish. Respublikamiz Prezidentining “2004-2009 yillarda maktab taʼlimini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi toʻgʻrisida”gi Farmonning uchinchi yoʻnalishida oʻquv standartlari, oʻquv dastur va darsliklarini takomillashtirish boʻyicha DTS, dastur, darsliklarning takomillashtirilgan variantlari tayyorlandi hamda shular asosida ish olib borilmoqda. Chunonchi, ona tili taʼlimining takomillashtirilgan standarti tayyorlandi. Unga koʻra:

a) grammatikaga oid oʻzlashtiriladigan bilimlar;

—fonetika, leksikologiya, soʻz tarkibi, soʻz yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, nutq uslublari, uslubiyatga oid tushunchalar.

b) nutq oʻstirish:

— birinchi yoʻnalish — oʻquvchilarning soʻz boyligini oshirish;

— ikkinchi yoʻnalish — oʻzbek adabiy tili meʼyorlarini oʻrgatish, adabiy talaffuz meʼyorlari, shuningdek, lugʻaviy sinonimika, qoʻshimchalar sinonimikasi, umuman, grammatik sinonimika bilan tanishtirish;

— uchinchi yoʻnalish — oʻquvchilarda fikrni ogʻzaki va yozma bogʻlanishli bayon qilish malaka hamda koʻnikmalarini hosil qilish shart qilib belgilangan.

Ana shundan kelib chiqib, ona tili taʼlimining bosh maqsadi: ona tili mashgʻulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda ogʻzaki va yozma shakllarda toʻgʻri, ravon ifodalash koʻnikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilmogʻi lozim. Bu murakkab, ayni paytda, masʼuliyatli vazifani bajarishda ona tili darsliklarining ahamiyati katta.

Oʻrta maktab oʻzbek tili darsliklarida oʻquvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladigan oʻquv topshiriqlari berilgan. Bu topshiriqlar turli usullar bilan oʻqituvchi hamkorligida oʻquvchilar tomonidan mustaqil bajarilishi kerak. Ularni bajarishda ijobiy natija beradigan topshiriqlarning

asosiy turlaridan biri grammatik o`yin-topshiriqlardir. Topshiriqning bu turi o`quvchilardan bilimdonlikni, izlanishni, topqirlikni va tezkorlikni talab qiladi. O`yin-topshiriqlar ona tili darslarining qiziqarli o`tishini ta`minlaydi. “O`zbek tili o`qitish metodikasi”da grammatik o`yin-topshiriqlar va ulardan foydalanish metodikasi yetarli ishlanmagan. O`yin-topshiriqlarning o`ziga xos xususiyatlari shundaki, u ko`pincha musobaqa tarzida tashkil etiladi. Natija yakunlanib, o`quvchi va guruhlarga ochko (yoki ball)lar beriladi. Bu, shubhasiz, topshiriqni bajarishga ishtiyoqni oshiradi. Natijada, o`quvchilarning grammatik savodxonligi, ijodiy fikrlash qobiliyati, topqirligi, nutqi va shu fanga muhabbati ancha ortadi. Shu bilan birga, qo`shimcha adabiyotlardan foydalanish, boshqa fanlar bilan ham jiddiy shug`ullanish ehtiyojini tug`diradi. Shunday ekan, o`qituvchi darslarining samarali bo`lishi uchun turli o`yin-topshiriqlardan va boshqotirmalardan unumli foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Bu esa fan o`qituvchisidan mahorat, ijodkorlik, eng asosiysi, tinimsiz mehnat talab qiladi. Bugungi davr talabi ham ana shudir.

Shularni hisobga olgan holda ona tili darslarini o`tishda ishlatish mumkin bo`lgan ayrim grammatik o`yinlar, boshqotirmalar va ulardan foydalanish metodlarini tavsiya qilamiz. Bunday grammatik o`yinlarni yanada ko`plab o`ylab topish va dars jarayonida qo`llash mumkin. Bu esa, yuqorida ta`kidlanganidek, o`qituvchining ijodkorligiga, izlanuvchanligiga, mahorati va tinimsiz qiladigan mehnatiga bog`liq.

Ma`lumki, o`yin-topshiriqlar o`quvchilar malaka va ko`nikmalariga ko`ra, murakkablik darajasiga ko`ra guruhlanib, soddadan murakkablik dinamikasiga qarab boradi.

1. Qayta xotirlash tipidagi o`yin topshiriqlar.

Bunday o`yin-topshiriqlardan o`tganlarni mustahkamlash hamda bilim va malakalarni tekshirish darslarida ko`proq foydalaniladi. Masalan, “Atoqli va turdosh otlar” mavzusiga oid darslarni mustahkamlash maqsadida “Kim g`olib?” o`yin-topshirig`idan foydalansa bo`ladi. Buning uchun sinf ikki guruhga ajratiladi: biri atoqli otlarga, ikkinchisi turdosh otlarga misol topishadi. Ma`lum

bir belgilangan vaqt ichida qaysi guruh ko`p misol topsa, o`sha guruh g`olib sanaladi.

O`qituvchi doskaga kitob, gazeta, jurnal, kundalik, sur`at, kinofilm so`zlarini alohida-alohida yozib qo`yadi. Sinf olti guruhga bo`linib (o`quvchilar soni hisobga olinishi zarur. Agarda guruhlarga teng bo`linmaydigan bo`lsa, guruhlarning sonini kamaytirishi yoki ko`paytirishi mumkin), ulardan shu otlarga misollar yozish talab qilinadi. Guruhlarning har bir a`zosi o`ziga qarashli so`zga bitta-bittadan misol yozadi. Tez va to`g`ri yozgan guruh g`olib sanaladi. G`oliblar, albatta, rag`batlantirilishi kerak. Bunday o`yin-topshiriqlardan istalgan mavzuni mustahkamlashda foydalanish mumkin.

Yoki o`quvchilarning bog`lanishli yozma nutqini sinash maqsadida “So`zlar bizdan, matn tuzish sizdan” o`yinini o`tkazish mumkin. Bunda o`quvchilarga tayanch so`z va so`z birikmalarni berib (ular doskaga yozib qo`yilishi ham mumkin), ular yordamida bog`lanishli matn tuzish topshiriladi, Tez va mazmunli matn tuzgan o`quvchi g`olib sanaladi.

DTS talablaridan biri sanalgan o`quvchilar so`z boyligini oshirishda izlanuvchanlik xarakteridagi o`yin-topshiriqlarni qo`llash yaxshi natija beradi. Bunday topshiriqlar o`quvchilardan ijodiy faoliyat ko`rsatishni talab qiladi. “Ijodkor” o`yin-topshiriqdan “Olmosh” mavzusini o`tishda samarali foydalanish mumkin.² Bu grammatik o`yinda sinf ikki guruhga ajratilib, birinchi guruhga ot so`z turkumi ishtirok etgan gaplarga misol aytish, ikkinchi guruhga esa shu gaplardagi ot(lar)ni olmosh bilan almashtirib gap tuzish topshiriladi. Masalan:

Birinchi guruh vakili yozadi: Ertaga olimpiada boshlanadi.

Ikkinchi guruh davom ettirib: Unda biz faol ishtirok etamiz. Shu yo`sinda davom ettiriladi. Bu o`yinni o`quvchilar o`rtasida yoki parallel sinflar o`rtasida “so`z mushoirasi” qilib davom ettirsa ham bo`ladi.

Ona tili ta`limi jarayonida topshiriqlar tizimi vositasida til hodisalari kuzatiladi, solishtirib qiyoslanadi, o`xshash va farqli tomonlari aniqlanadi,

² TAT jurnalining 1996-2002 yildagi ayrim sonlarida e`lon qilingan ayrim o`yin-topshiriqlardan ijodiy foydalanildi

umumiy va xususiy tomonlariga qarab guruhlanadi, umumlashma qoidalar hosil qilinadi. Natijada qayta xotirlash topshiriqlaridan ijodiy topshiriqlarga qarab dinamik o`shish yuzaga kela boradi. Bunday topshiriqlar o`quvchi tafakkuri taraqqiyotida alohida ahamiyat kasb etadi.

O`quv topshiriqlarining soddadan murakkabga tomon o`shish dinamikasini aniqlash, belgilash murakkab jarayon. Topshiriqlar shunday yo`sinda joylashtirilishi zarurki, o`quvchi tafakkuri taraqqiyotiga ijobiy ta'sir qilsin. Ijodiy topshiriqlar, ya'ni o`quvchi tafakkurini o`stiruvchi topshiriqlar o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lishi zarur:

- o`quvchini izlashga, fikr qilishga, noma'lumni topishga undasin;
- o`quvchini mustaqil xulosa chiqarishga yo`naltirishi zarur;
- masalaning murakkablasha borishi o`quvchi aqli, farosatini o`stira borishi kerak;
- bu jarayonning kechishi o`quvchilarda jamoa bo`lib ishlash ko`nikmalarini hosil qila borishi lozim;
- topshiriqlarni bajarish jarayoni o`quvchida o`ziga ishonch, o`zini (bilimini) anglash, imkoniyatlarini aniqlay olish, yangi bilim olishga undashi shart.

Yangilangan ta'lim mazmuni asosida yaratilgan darsliklarda tilshunoslikning hamma bo`limlariga mo`ljallangan mashg'ulotlarda darslar ta'rif, qoida bilan boshlanmasdan, ya'ni o`quvchilarga bilimlar tayyor holida berilmasdan har bir mavzu uchun mo`ljallangan topshiriqlar tahlili bilan boshlanadi. Mana shu o`rinda o`qituvchi mahorati, qobiliyati, uquvi namoyon bo`ladi. Ana shu jarayonda bir faoliyat usulidan bosqichma-bosqich ikkinchi faoliyat usuliga o`tishi, ya'ni kuzatishdan umumiy xususiyatlari asosida guruhlashga, takrorlashdan o`xshash va farqli tomonlarini aniqlash asosida umumlashmalar shakllanadi. Shundagina berilgan topshiriqlar til hodisalarining mohiyatini ochishga xizmat qiladi.

5- sinfda fonetika bo`limi o`tilayotganda quyidagi grammatik topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1-topshiriq. i-u, a-o, o`-u, i-e, b-p, d-t, z-s, j-ch juftliklari bilan farqlanuvchi so`zlar hosil qiling.

2-topshiriq. x-h tovushlari bilan farqlanuvchi so`z juftlari hosil qiling. H fonemasining talaffuziga e'tibor bering.

3-topshiriq. ng harfiy birikmasiga so`zlar toping va ularni bo`g'inlarga ajrating.

4-topshiriq. "yaxshi" va "yomon" so`zlarining o`xshash va farqli tomonlarini toping.

O`xshash tomonlari: 5ta harf, 2ta unli, 3ta undosh, 2ta bo`g'in, urg'u oxiriga tushadi, 5ta tovush. Farqli tomoni deysizmi? Ma'nosi-chi ? Uning antonimligichi?

5-topshiriq. "x" tovushli so`zlar zanjirini tuzing.

Baxt -taxt- tuxum - mirrix -xayol - laxtak - kimxob - baxmal - laxta - axta - axir - ruxsat - taxta - axloq - qix - xafa - axir - ruxsat - taxt - taxlit - taxmin - narx - xabar - ruxsatnoma - axtar - ruxsor.

Buni leksikologiyaga oid topshiriqlar bilan davom ettirish mumkin.

6-topshiriq. Tarkibida antonim so`zlar ishtirok etgan maqollardan toping va davom ettiring.

Birlashgan o`zar, birlashmagan to`zar.

Gapni kam so`zla, ishni ko`p ko`zla.

Yomg'irdan qutildim, qorga tutildim.

Yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming qamchi.

O`t bergan o`tini oladi, suv bergan - suvini kabi.

7-topshiriq.

1. Shunday so`zlar yozingki, har ikki tomonidan o`qiganda ham ma'nosi o`zgarmasin.

Ana, non, lol, ko`k, dod, alla, arra, ikki, katak, kichik, kuchuk, kiyik, nodon, qovoq, qochoq, qipiq, qiziq, qiliq, qiyiq, bob, lil, qoq kabi.

2. Shunday soʻzlar yozingki, har ikki tomonidan oʻqiganda turli maʼno anglatsin.

Mis-sim, mosh-shom, lof-fol, mol-lom, kit-tik, nok-kon, kalit-tilak, bobur-rubob, tom-mot, koʻp-poʻk, qish-shiq, qop-poq, qis-siq kabi.

8-topshiriq. Soʻzdan soʻz yasang.

Navoiy

Nav, navo, nay, on, in, ona, oyi, ov, voy, ayvon, anvoyi.

9-topshiriq.

1. Berilgan soʻzlarga tovushdan soʻzlar toping

ot – it, yut, oʻt, et, osh, ol, oq, ov, oz, on, or, os, ox, och, ogʻ, oh.

ana –

bir –

bosh –

bol –

2. u-oʻ ishtirokida tovushdosh soʻzlar toping.

uz- oʻz, uy-oʻy, un-oʻn. ur-oʻr, uq-oʻq, uch-oʻch, ul-oʻl,

bur-boʻl, sur-soʻr, gur-goʻl, dur-doʻl ...

bul-boʻl, kul-koʻl, qul-qoʻl...

tul-toʻl, gul-goʻl...

3. Hamma unlilarni juftlashtirib ularga tovushdosh soʻzlar topish topshirilishi mumkin.

a-o: bor-bar, bal-bol, tam-tom...

i-e: pish-pesh, tish-tesh, tir-ter...

Oʻquvchilar nutqini sinonim soʻzlar bilan boyitishda ham oʻzbek tili tovush tizimining qulayliklaridan foydalanish mumkin. Masalan,

10-topshiriq. Soʻz juftlarini oʻqing. Ayirish belgisini ishlatish sabablarini tushuntiring, ayirish belgisiz yozilgan soʻzlarning maʼnolarini toping.

Alam-aʼlam, davo-daʼvo, sava-saʼva, qala-qaʼla, surat-surʼat.

Alam arabcha – omonim soʻzlar sirasiga kirib a)ogʻriq, dard; gʻazab, nafrat; zahr maʼnolarini, b)bayroq, tugʻ maʼnolarini anglatadi.

Bulardan bayroq, tugʻ maʼnolari arxaiklashgan kitobiy uslubga xos.

Aʼlam ham arabcha soʻz boʻlib, eskirgan, kitobiy eng bilagʻon, eng dono maʼnolarini anglatadi. Bu soʻz koʻproq shariat qonunlari bilimdoni maʼnosida ishlatiladi.

Davo ar. – dori-darmon; tadbir, chora maʼnolarini anglatadi.

Daʼvo ar. – arz, shikoyat, iddao maʼnolarini anglatadi.

Sava – bu soʻz ikki maʼnoda, yaʼni mesh, sanoch maʼnosida predmetni anglatadi, savalamoq feʼlining buyruq maʼnosi sava – shaklida ham qoʻllaniladi. Faol leksikada koʻproq bu soʻzning feʼl turkumi maʼnosi tushuniladi. Oʻquvchilarga predmet maʼnosini ham tushuntirish kerak.

Saʼva ar. – sayroqi qush.

Surat ar. – koʻrinish, timsol, tasvir, fotorasm, nusxa.

Surʼat ar. – tezlik, shoshilinch, jadallik. Ish-harakatning darajasi.

Qala – shevalarda shahar maʼnosini anglatadi (qozoqcha-shahar). Ammo faol leksikada bu soʻz buyruq feʼli yoki “qalamoq” harakatini bildiruvchi feʼling asosi maʼnosida qoʻllaniladi. Oʻquvchilarga “qala”ning omonimlar ekanligini tushuntirish, ularning leksikasini bir soʻzga boyitish demakdir.

Qalʼa ar. – devor bilan oʻralgan qoʻrgʻon, shahar maʼnolarini anglatadi.

11-topshiriq. A va o unlilari bilan farqlanuvchi soʻz juftlarini oʻqing. Bu unlilarning talaffuziga eʼtibor bering. Soʻzlar qatorini davom ettiring, ularning maʼnodoshlarini toping.

Ona-ana, soda-sada, qotil-qatl, ota-ata, Sora-sara, olam-alam, bol-bal...

Tovushdosh soʻzlarning maʼnodosh (sinonim)larini topish bilan bu soʻzlarning boshqa-boshqa maʼno taraqqiyotiga egaligi aniqlanadi. Yana shunday topshiriq berish ham mumkin.

12-topshiriq. Berilgan soʻz juft (tovushdosh)larining maʼnodoshlarini toping.

Bob-bop, sirt- surt, bur-bor, boʻl-bol, til-dil.

Bob – bo`lim, qism; bop – mos, yarashiqli, soz; sirt – tashqi, tash, tish; surt – art, bo`ya; bur – aylantir; bor – mavjud; bo`l – hozirlan, tayyorlan; bol – asal; til – zaban; dil – yurak, qalb, ko`ngil kabi ma`nodoshlari topiladi. Bunday ijodiy amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida o`quvchilarning lug`at boyligi oshadi, so`zlarning imlosini yaxshi o`zlashtirib olishadi.

Ma`lumki, ona tili fanida mavhum tushunchalar, ta`rif va qoidalar juda ko`p. O`quvchi har bir til hodisasini mustaqil o`rganmasa, bu hodisalar ustida mustaqil ijodiy ish bajarmasa, fikrlash, kuzatish, qiyoslash, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish kabi aqliy faoliyat bilan shug`ullanmasa, til hodisalarining mohiyatini anglay olmaydi va ularni puxta o`zlashtira olmaydi.

Bu aytganlarni bajarish, asosan, amaliy-ijodiy faoliyat bilan bog`liq. Ayni paytda o`quvchi charchamasligi, zerikmasligi, qiziqish bilan faoliyatga kirishishi kerak. Bu jarayonga o`yin(grammatik o`yin) yo`li bilan kirishish o`quvchilar tabiatiga juda mos keladi. Chunki o`yin o`quvchining eng sevimli mashg`uloti, faoliyatida asosiy o`rinni egallaydi. Ana shu imkoniyatni foydali tomonga, maqsad sari yo`naltirish zarur.

3.2. Ona tili darslarida didaktik o‘yinlardan foydalanish


Darsda o‘quvchilarni faollashtirish va qiziqtirish uchun turli o‘yin va o‘yin mashqlaridan foydalanish mumkin. Chunki o‘yinga xos musobaqa elementi o‘quvchilarni faollashtirish, ularda mustaqil fikrlash va ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish natijasida dars samaradorligi oshadi. Shu bois quyida 5-sinf ona tili darslarida foydalanish mumkin bo‘lgan shunday o‘yinlardan bir nechtasini keltirib o‘tamiz.

«Zukkolar guldastasi»

Dastlab o‘quvchilar ikki guruhga ajratiladi. O‘qituvchining stoli ustiga turli gullar tasviri tushirilgan qog‘ozlar qo‘yiladi. Har bir guruhdan bittadan o‘quvchi chiqib tanlagan gulning orqasiga uning nomini to‘ri yozishi kerak bo‘ladi. Agar o‘quvchi gulning nomini bexato yozsa, uni o‘z guruhiga mo‘ljallangan guldonga solib qo‘yadi. Nomi noto‘g‘ri yozilgan gul guldonga solinmaydi. Masalan: 1-guruh vakili binafsha rasmi tushirilgan gul rasmini tanlab, uning nomini to‘g‘ri yozdi va gulni guldonga solib qo‘ydi. 2-guruhdan chiqqan o‘quvchi esa chuchmoma gulining nomini noto‘g‘ri yozdi va gulni guldonga sola olmadi. O‘yin shu tariqa davom etib, har bir guruhning guldastasi shakllanib boradi. Qaysi guruhning guldonga solgan gullarining soni ko‘p bo‘lsa, o‘sha guruh g‘olib hisoblanadi.

«Zukkolar guldastasi»

o'yni



«Aqlilar shashkasi»

O'qituvchining stoli ustiga shashka taxtasi qo'yiladi. O'quvchilar «Oqlar» va «Qoralar» guruhlariga bo'linadilar. Har bir guruh o'quvchilari birlariga ketma-ket savollar beradilar. Agar «Oqlar» guruhidan chiqqan bir o'quvchi va «Qoralar» guruhi tomonidan berilgan savolga to'g'ri javob bersa, o'qituvchi shashka donachasini oldingi katakka siljitadi. Javob noto'g'ri bo'lsa, shashka donachasi o'z joyida qoladi. So'ngra javob berish navbati «Qoralar» guruhiga o'tadi. Masalan: «Oqlar» guruhi «*Istiqlolimiz... 20 yoshi muborak*» gapidagi nuqtalar o'rniga kerakli kelishik qo'shimchasini qo'ying degan savolga qaratqich kelishigi qo'shimchasi (-ning)ni to'g'ri qo'lladi va shashka donachasi oldingi katakka siljidi.

«Qoralar» guruhining vakili «*Tinchligimiz... asrab-avaylaylik*» gapidagi nuqtalar o'rniga zarur kelishik qo'shimchasini qo'ying degan topshiriqqa tushum kelishigi qo'shimchasi (-ni)ni o'rniga qaratqich kelishigi qo'shimchasi (-ning)ni noto'g'ri qo'lladi. Natijada shashka donachasi o'z joyida qoldi.

O'yin shu tariqa davom etadi. Savol-javoblar tugagach, o'qituvchi oldinga surilgan shashka donachalarini sanaydi. Eng ko'p shashka donachalariga ega bo'lgan guruh g'olib hisoblanadi.

« Aqllilar shashkasi » o'yini



«Dengizga sayohat»

Dastlab dengiz sayohatiga o'tlanayotgan ulkan kema tasvirlangan rasm xattaxtaga osib qo'yiladi. O'qituvchining stoli ustida orqasiga savol yozilgan sayohatchilarning rasmi bo'ladi. O'quvchilar 2 guruhga ajratiladi. Har bir guruhdan o'quvchi chiqib, sayohatchilardan xohlagan birini tanlashlari va uning orqasidagi savolga javob berishlari kerak bo'ladi. Savolga to'g'ri javob bergan o'quvchining «sayohatchi»si kema rasmining oldiga qo'yiladi ya'ni ushbu «sayohatchi» kemaga chiqariladi. Javob noto'g'ri bo'lgan holda «sayohatchi» kemaga chiqish huquqidan mahrum bo'ladi. Masalan: *pa.ta, .alq, .at, ba.t* so'zlaridagi nuqta o'rniga *x* yoki *h* harflarining qaysi biri mos keladi degan savolga 1-guruh o'quvchisi to'g'ri javob (*x* harfi mos keladi) berdi va uning «sayohatchi»si kemaga chiqarildi. 2-guruh ishtirokchisi *f.nt.n, v.d.pr.v.d, m.gnit.f.n, f.n.r* so'zlaridagi nuqtalar o'rniga *a* va *o* harflarini to'g'ri qo'yib chiqing degan topshiriqqa noto'g'ri (*fantan, vadappravad, mognitafon, fanar*) javob berdi va uning «sayohatchi»si kemaga chiqarilmadi.

O'yin so'ngida o'qituvchi har bir guruhning «sayohatchi»larini sanab chiqadi. «Sayohatchi»lari ko'p bo'lgan guruh ishtirokchilari g'olib deb e'lon qilinadi.

Ona tili darslarida olib boriladigan ta'limiy o'yinlar quyidagi ahamiyatga ega:

- o'yin har doim shaxsning ma'lum bir faoliyatga bo'lgan qiziqishini orttiradi;
- o'yin davomida o'quvchining muloqotga kirishishi, kommunikativ-muloqot madaniyatini egallashga yordam beradi;
- o'quvchining o'z iqtidori, qiziqishi, bilimini va o'zligini namoyon etishga imkon yaratdi;
- O'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;
- O'yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish va do'stona muhit yaratish ko'zda tutiladi;

Shunday ekan, ona tili darslarida tashkil etiladigan ta'limiy o'yinlarning afzalliklari ham talaygina. Eng muhimi, ta'limiy o'yinlar orqali nafaqat yangi bilim berish, balki o'tilganlarni mustahkamlash, takrorlash, bilimlarni tekshirish kabi qismlarni ham tashkillashtirish mumkin.

O'yinning afzalligi vaqtni tejash, sinfdagi o'quvchilarning har birini e'tibordan chetda qoldirmaslik, o'quvchilar faolligini oshirish, fikrlarini erkin bayon eta olish, nutq boyligini oshirish, mantiqiy fikrlash qobilyatini o'stirish kabi sifatlarini yuksaltirishda yuqori samara beradi.

X U L O S A

Ma'lumki, o'quvchilarga ona tilidan bilim va ko'nikma, asosan, dars jarayonida beriladi. Bundan tashqari, fakultativ mashg'ulotlarda, sinfdan tashqari ishlarda, o'quvchilar bilan individual mashg'ulotlar o'tkazish davomida, turli xil kuzatish va ekskursiyalarda va nihoyat, o'zi mustaqil o'qib ham ona tilidan bilim va malakalar egallaydi. Lekin ona tili o'qitishning eng samarali va unumli formasi dars hisoblanadi. Bunda o'qituvchi bir vaqtning o'zida bir necha o'quvchi bilan ishlaydi va ma'lum bir mavzu bo'yicha o'quvchilarga ma'lumot beradi.

Ona tili o'qituvchisi o'quvchilarga bilim berishda o'z mehnatining samarali va yengil bo'lishi uchun turli xil ish usullarini qo'llaydi, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarni amalda qo'llay olishlari uchun ularga mos keladigan mashqlar tanlaydi. Mana shular butun holicha o'qitish metodi hisoblanadi. Ona tili o'qituvchisi mutaxassis bo'lishi kerak.

O'qitish metodlarini tanlashda ikki muhim narsa nazarda tutiladi:

- a) o'quvchilarning o'qituvchidan nazariy bilim olish faoliyati;
- b) buni turli mashqlar vositasida ongli o'zlashtirib, amalda qo'llay olishlari.

Metod tanlashda nazariy ma'lumot va unga mos keladigan mashqlar, sinfning tayyorgarligi, o'quvchilarning yoshi va mavzuning hajmi kabilar hisobga olinadi. Shuning uchun ham mashq, grammatik tahlil, ko'rgazmali qurollar, suhbat kabi metodlar deyarli har bir darsda qo'llanilishi mumkin.

Metod tanlashda ona tili kursining o'ziga xos xususiyatlariga ahamiyat beriladi: nutq o'stirish darslarida notanish so'zlarning ma'nosini izohlash, inshoga tayyorlanish, o'quvchilarni lug'at yoki adabiyotlar bilan ishlashga o'rgatish, stilistik xatolarni tuzatish kabilardan foydalanilsa,

grammatika darslarida suhbat, bayon, ta'rif va qoidalar ustida ishlash kabi usullardan foydalaniladi.

Bulardan biri bilimlarni muammoli bayon qilish usulidir.

Bu usulda o'qituvchi til materiallarini tayyor holda bayon etmaydi, balki kuzatish, taqqoslash, o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash, umumlashtirish kabi logiklingvistik vositalardan foydalanib, o'quvchilar oldiga ma'lum bir muammo qo'yadi. O'quvchilar mavjud bilim va ko'nikmalar asosida muammoni yechadilar.

Umuman olganda ona tili o'qitish metodikasi o'qituvchining pedagogik dunyoqarashini va ona tili o'qitishga munosabatini shakllantiradi: o'z kasbiga hurmat bilan qarashni tarbiyalashligini inobatga olib quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ta'lim jarayonining samaradorligi o'quvchilarni rag'batlantirish, ularda motivlarni shakllantirish va rivojlantirish bilan uzviy bog'liq.

2. Ta'lim jarayonida metodlardan o'rinli va to'g'ri foydalanish o'quvchilarga fan asoslarini puxta, ongli o'zlashtirish bilan birgalikda mustaqil fikrlash uchun ham imkon beradi.

3. Ona tili darslarida muammoli vaziyatlar yaratish, o'quvchilarni o'ziga xos tadqiqiy faoliyatga jalb etish, ziddiyatli masalalarni hal etish tomon yo'llash mustaqil fikrlashga, mustaqil faoliyat yuritishga, bilimlarni mustahkam o'zlashtirishga undaydi.

4. O'quvchilar faolligini oshirish usullaridan yana biri mustaqil ish metodidir. Ona tili darslarida rekonstruktiv va ijtimoiy mustaqil ishlar tizimidan samarali foydalanish maqsadga muvofiq.

5. Ona tili darslarida o'quvchilar faoliyatining asosiy mazmunini tashkil etuvchi o'yinlardan ta'limiy maqsadlarda izchil va muntazam foydalanish o'quvchi faolligini oshirishda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

6. O'qituvchining o'quvchilar bilan hamkorlik faoliyatini tashkil etishda interfaol metodlardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga, o'quvchilar faolligini oshirishda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

7. Yetuk kadrlar tayyorlash tizimining asosi bo'lgan o'rta maktabda ona tili ta'limi o'qituvchi – o'quvchi hamkorligi asosida muammoli izlanish, mustaqil ish, didaktik o'yinlardan iborat tizimga asosan tashkil etilsa ijobiy samara beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent. "Sharq" 1998 yil. 33, 134-betlar.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent. "Sharq" 1997 yil 9-bet.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun // Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori//. Toshkent "Sharq" 20-29-betlar.
4. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". Toshkent "Sharq" 2001 yil.
5. Umumiy o'rta ta'limning "Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi". Toshkent "Sharq" 1999 yil 1-maxsus sahifasi.
6. Takomillashtirilgan yangi tahrirdagi umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti. Toshkent 2010 yil
7. Almamatov T, Yadgarov Q. Almamatova Sh. O'zbek tilini o'qitishda innavatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Toshkent, 2013 y.
8. Abduraimova M. Ona tili ta'limida yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2001 yil.
9. Abdulhatova R, Yusupova T, Do'sanov Q. Til ta'limida uzviylik va uzluksizlik. Toshkent, 2008 yil.
10. Almamatov T, Yodgorov Q, Pochayeva G. O'zbek tili o'qitish metodikasi. (metodik qo'llanma) Jizzax, 2006 yil.
11. Almamatov T, Yadgarov Q. Metodikadan maxsus kurs va seminar. Ma'ruzalar matni. Jizzax, 2009 yil.
12. Husanboyeva Q. Adabiy ta'limda mustaqil fikrlashga o'rgatish asoslari. Toshkent, 2003 yil.
13. Mahmudov N. Tilimizning tillo sandig'i. Toshkent, 2012 yil.
14. Mahmudov N va boshqalar. Ona tili 5-sinf uchun darslik. Toshkent, 2008.
15. Mahmudov N va boshqalar. Ona tili Umumta'lim maktablarining 6-sinf uchun darslik. Toshkent, 2005 yil.

16. Mahmudov N va boshqalar. Ona tili Umumta'lim maktablarining 7-sinf uchun darslik. Toshkent, 2005 yil.
17. Mahmudov va boshqalar. O'qituvchi kitobi. Ona tili 5-sinf uchun metodik qo'llanma. Toshkent. Tafakkur nashriyoti, 2011 yil.
18. Mahmudov va boshqalar. O'qituvchi kitobi. Ona tili. 7-sinf uchun metodik qo'llanma. Toshkent. Tafakkur nashriyoti 2011 yil.
19. Mirjalolova K. Ona tili darslarida o'quvchilarning mustaqil ishlari. Til va adabiyot ta'limi jurnali. 2009 yil 10-son.
20. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. Toshkent, 2006 yil.
21. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari. Ped.fan.doktori dissertasiya avtoreferat. T., 1995y.
22. Musayev F. Mustaqil fikrlash nima? "Ma'rifat" gazetasi, 1999 yil 7-avgust.
23. Nurmonov A, Ikromov I, Boynazarov F. Yangi pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent, 2007 yil.
24. Nurullayeva Shahlo. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish metodikasi. Ped.fan.nomzodi dissertasiya avtoreferat. Toshkent, 2007 yil.
25. To'xliyev B, Shamsiyeva M, Ziyatova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. (o'quv qo'llanma). Toshkent, 2006 yil.
26. To'xliyev B, Inog'omova R, Abdulhatova R. Darsliklar bilan ishlash metodikasi. Toshkent, 2008 yil
27. To'xliyev B va boshqalar. O'zbek tili o'qitish metodikasi (amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari) o'quv qo'llanma. Toshkent, 2012 yil.
28. Yo'ldoshev Q. Yangicha pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. Ped.fan.dok. dissertasiya avtoreferat. Toshkent, 1997 yil.
29. Ziyatova T. Matn yaratish texnologiyasi: (ona tili ta'limi misolida). Toshkent, 2007 yil.

MUNDARIJA :

Kirish. -----	3
I bob. O‘qitishda muammoli ta’lim metodidan foydalanish.	
1.1. Metod haqida tushuncha.-----	7
1.2. Matn yaratishda muammoli ta’im usulidan foydalanish.-----	14
1.3. Ona tili va unda matn yaratish muammosi talqini.-----	20
II bob. Ona tili mashg‘ulotlarida muammoli ta’lim usulidan foydalanish.	
2.1. O‘quvchilarga bilim berishda izlanishga asoslangan metodlardan foydalanish.-----	26
2.2. O‘quvchilar faolligini oshirish omillari.-----	41
III bob. Ishning amaliyotga tadbiqu.	
3.1. Umumiy o‘rta ta’limda o‘quvchilar faolligini oshirishga qaratilgan o‘yin-topshiriqlardan foydalanish. -----	46
3.2. Ona tili darslarida didaktik o‘yinlardan foydalanish-----	54
Xulosa -----	60
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati-----	63